

JALOL BOLTAYEV

O'ZBEKISTON TARIXI

1/3

EHTIMOLIY SAVOLLAR – 2024

**NOMUTAXSSIS YO'NALISHLAR UCHUN
6-7-8-9-10-11-SINF DARSЛИKLARI ASOSIDA**



@TESTLIDER



(97) 299 00 66



Xorazm viloyati

TARIX, GEOGRAFIYA FANLARIDAN KAFOLATLANGAN O'QUV KURSI! BU QANDAY?

«O'qishga kirish uchun yillab tayyorgarlik ko'rish, bir yil o'qishdan yiqilish, vunderkind bo'lish shart emas! Kafolatlangan (hujjat bilan) va aniq maqsadlarga yo'naltirilib ishlab chiqilgan o'qituvchi metodi va o'sha metodga javob berish yetarli!»

— Abituriyentga mas'ul shaxs (ota-ona) bilan mas'ul repetitor Jalol Boltayev o'rtasida **SHARTNOMA (NATIJA KAFOLATI TO'G'RISIDA)** tuziladi. Shartnomaga muvofiq abituriyentlarning natijalari (o'qishga kirishi) kafolatlanadi. Agarda abituriyent OTMga kira olmasa, shartnomaga muvofiq kurs to'lovi qaytarib beriladi.

KURS DASTURI HAQIDA QISQACHA:

- ✓ Har bir abituriyentning darsliklar kesimida o'zlashtirish darajasi Jalol Boltayev ishlab chiqqan dastur bo'yicha 100 % lik hisobda aniqlab boriladi va abituriyent natijalari haqida unga mas'ul shaxsga oyma-oy hisobot beriladi.
- ✓ Kurs dasturi/metodi 1 yil ichida maksimal natijaga erishishga mo'ljallangan.
- ✓ Kurs dasturi/metodi haqida batafsil ma'lumot:
<https://telegra.ph/KAFOLATLANGAN-NATIJA-BU-QANDAY-08-22>

O'quv kurslarimizga marhamat! (ONLAYN yoki OFLAYN)

- Repetitor: Jalol Boltayev
- Telefon: (97) 299-00-66
- Manzil: Xorazm v. Urganch sh., «ARASTU» o'quv markazi
- Mo'ljal: UrDU, «Hyundai» avtosaloni yonida

QUYIDAGI HAVOLA (KO'K YOZUV) USTIGA BOSIB, KANALIMIZGA A'ZO BO'LING! TARIX
FANIGA OID SIFATLI MATERIALLAR USHBU KANALDA!

[@TESTLIDER](#)

O'QUV KURSLARIMIZ HAQIDA BATAFSIL MA'LUMOT:

[KURS HAQIDA](#)

KAFOLATLI

O'QUV KURSLARI

ONLAYN + OFLAYN

REPETITOR
JALOL BOLTAYEV

TELEFON
(97) 299-00-66

VILOYAT
XORAZM

O'QUV MARKAZI
"ARASTU"

NATIJA KAFOLATI!

TARIX + GEOGRAFIYA + HUQUQ

@TESTLIDER

Shartnoma bilan

MUHR

Tarix

1-QISM

1	O'rta Osiyo tarixi bo'yicha eng qadimgi yozma manba qaysi javobda to'g'ri berilgan?	"Avesto"
2	Behistun bitiklari kimning buyrug'iga ko'ra yozilgan?	Doro I
3	"Tarix" asarining muallifi kim?	Gerodot
4	"Geografiya" asarining muallifi kim?	Strabon
5	"Makedoniyalik Aleksandr tarixi" asarining muallifi kim?	Kvint Kursiy Ruf
6	"Aleksandrning harbiy yurishlari" asarining muallifi kim?	Arrian
7	Jahondagi barcha xalqlarning tarixi qanday tuzumdan boshlangan?	Ibtidoiy jamoa tuzumi
8	Insoniyat rivojidadagi qaysi bosqich birinchi bosqich hisoblanadi?	Ibtidoiy to'da
9	Birgalikda yashagan va mehnat qilgan, umumiy mehnat qurollari va qurol-yarog'larga ega bo'lgan qarindoshlar jamoasi nima deb ataladi?	Urug'
10	Tosh davri qaysi bosqichlarga bo'linadi?	Paleolit, mezolit, neolit, eneolit
11	Buyuk muzlik davri qachon boshlangan?	Ilk paleolitning oxirlariga kelib
12	Quyidagi qaysi manzilgoh Toshkent vohasida joylashgan?	Ko'lbuloq
13	Quyidagi qaysi manzilgoh Farg'ona vodiysida joylashgan?	Selungur
14	Kishilarning eng qadimiy mashg'ulotlari qaysi javobda to'g'ri berilgan?	Termachilik va ovchilik
15	8–9 yashar neandertal bolaning suyak qoldiqlari quyidagi qaysi manzilgohdan topib o'rganilgan?	Teshiktosh
16	Dastlabki diniy e'tiqodlar qaysi davrda shakllangan?	O'rta paleolit
17	Ilk rasmlar qaysi davrda chizilgan?	So'nggi paleolit
18	Hozirgi qiyofadagi odam nima deb ataladi?	Kromonyon
19	Ilk taqinchoqlar qaysi davrda yasala boshlangan?	So'nggi paleolit
20	Odamlar qaysi davrda urug' jamoalariga birlashganlar?	So'nggi paleolit
21	Odamlar qaysi davrda qabilaga birlashganlar?	So'nggi paleolit
22	Dastlabki turar joylar qaysi davrda qurilgan?	So'nggi paleolit
23	Inson qaysi davrda kiyim-kechak tayyorlashda hayvon terisidan foydalanishni o'rganib olgan?	So'nggi paleolit
24	Inson qaysi davrda sun'iy olovdan foydalanishni o'rganib olgan?	So'nggi paleolit

25	Muzlik davri qachon poyoniga yetgan?	Mezolit
26	Inson qaysi davrda o'q-yoy yasashni o'rganib olgan?	Mezolit
27	Odamlar qaysi davrda hayvonlarni qo'lga o'rgata boshlagan?	Mezolit
28	Old Osiyoda ibtidoiy ziroatchilik va chorvachilik qaysi davrda vujudga kelgan?	Mezolit
29	Mezolit davriga oid manzilgohlarni belgilang.	1) Obishir; 2) Qo'shilish; 3) Machay; 4) Zarautsoy
30	Odamlar qaysi davrda qadimgi sharqning turli viloyatlarida ishlab chiqaruvchi xo'jalik – dehqonchilik va chorvachilikka o'ta boshlagan?	Neolit
31	Sopol idishlar yasash qaysi davrda kashf etilgan?	Neolit
32	Toshga ishlov berishning silliqlash va parmalash usullari qaysi davrda kashf etilgan?	Neolit
33	Odamlar qaysi davrda o'troq turmush tarziga o'tishgan?	Neolit
34	Doimiy turar joylar qaysi davrda qurilgan?	Neolit
35	Kulolchilik va to'quvchilik qaysi davrning kashfiyotlari hisoblanadi?	Neolit
36	Qadimgi sharqda ilk shaharlar va davlatlar qachon vujudga kelgan?	Mil. avv. 4-ming yillikda
37	Kulolchilik xumdonlaridan qachon foydalanishga kirishilgan?	Eneolit davrida
38	O'rta Osiyoning janubida qaysi davrda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik vujudga kelgan?	Eneolit
39	Xom g'ishtdan ko'p xonali uylar qaysi davrda qurilgan?	Eneolit
40	Sopol idishlar qaysi davrda hayvonlarning, qushlarning va o'simlik naqshlari bilan bezatila boshlangan?	Eneolit
41	Patriarxat davri qachon vujudga kelgan?	Bronza
42	Kulolchilik charxi va g'ildirak qaysi davrda kashf etilgan?	Bronza
43	Bronza davriga oid Zamonbobo manzilgohi qayerda joylashgan?	Buxoro viloyatining Qorako'l tumanida
44	Bronza davriga oid Sopollitepa manzilgohi qayerda joylashgan?	Surxondaryo viloyatining Muzrabod tumanida
45	Bronza davriga oid Jarqo'ton manzilgohi qayerda joylashgan?	Surxon vohasida
46	Qaysi manzilgoh qurilishida ilk shahar alomatlari ko'zga tashlanadi?	Jarqo'ton
47	Quyidagi qaysi manzilgohdan ibodatxona qoldiqlari topilgan?	Jarqo'ton

48	O'rta Osiyoda qachondan boshlab temirdan mehnat qurollari yasay boshlangan?	Mil. avv. IX–VIII asrlarda
49	“Avesto”ga ko'ra, Nmana ...	Patriarxal oila
50	Vis ...	Urug'
51	Varzana ...	Hududiy qo'shnihilik jamoasi
52	Zantu ...	Qabila
53	Dax'yu ...	Qabilalar ittifoqi
2-QISM		
54	<u>Zarafshon va Qashqadaryo</u> vohasida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi ko'plab aholi istiqomat qilgan. Yunon yozma manbalarida bu hudud qanday atalgan?	So'g'diyona
55	Mil. avv. VII–VI asrlarda <u>Amudaryoning quyi oqimida</u> kimlar yashagan?	Xorazmliklar
56	<u>Surxon vohasi, Afg'onistonning shimoliy, Tojikistonning janubiy</u> hududlarida yashagan aholi yunon-rim mualliflarining asarlarida qanday atalgan?	Baqtriana yoki Baqtriya
57	Yunon-rim tarixchilarining yozishlaricha, saklar necha guruhga bo'lingan?	3 guruhga:
58	Qadimiy Afrosiyob shahri qayerda joylashgan?	Samarqand
59	Qadimiy Yerqo'rg'on va Uzunqir shaharlari qayerda joylashgan?	Qashqadaryo
60	Qadimiy Ko'zaliqir shahri qayerda joylashgan?	Xorazm
61	Qadimiy Qiziltepa shahri qayerda joylashgan?	Surxondaryo
62	Baqtriya davlati qachon tashkil topgan?	Mil. avv. VII asrda
63	O'rta Osiyoning eng qadimiy davlatlari qaysilar?	Baqtriya, Xorazm
64	“Avesto” so'zining ma'nosi nima?	“Qat'iy belgilangan qonun-qoidalar”
65	“Avesto”ning ilk qismi qachon paydo bo'lgan?	Mil. avv. IX–VIII asrlarda
66	Zardusht va'zlari matnlarining hammasi qachon 21 ta kitobda jamlangan?	Mil. avv. III asrda
67	“Avesto”ni kim tarjima qilgan?	A. Dyuperron
68	Massagetlar malikasi To'maris kimlarga qarshi kurash olib borgan?	Eron ahamoniylariga (forslarga)
69	O'rta Osiyo hududini bosib olishga harakat qilib ko'rgan dastlabki fors podshosi kim?	Kir II
70	Qaysi Fors podshosi massagetlar malikasi To'maris bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan?	Kir II

71	Doro I hukmronligining birinchi yili qayerda fors istilochilari qarshi qo'zg'olon ko'tarilgan?	Marg'iyonada
72	Doro I hukmronligi davrida Marg'iyonada ko'tarilgan qo'zg'olonga kim rahbarlik qilgan?	Frada
73	Doro I hukmronligining uchinchi yili saklar ustiga yurish qiladi. Saklarning yo'l boshchisi kim edi?	Skunxa
74	Shiroq jasorati haqida ma'lumot qoldirgan tarixchi kim?	Poliyen
75	O'rta Osiyo hududida dastlabki tanga pullar qachon tarqalgan?	Mil. avv. V–IV asrlarda
76	Amudaryo xazinasi nechanchi yilda topilgan?	1877-yilda
77	O'rta Osiyoda xanjar nima deb atalgan?	Akinak
78	O'rta Osiyoda jangovar oybolta nima deb atalgan?	Sagaris
79	Makedoniyalik Aleksandr nechanchi yilda Sharqqa yurish boshlagan?	Mil. avv. 334-yilda
80	Qadimgi Fors davlatining oxirgi shohi kim?	Doro III
81	Makedoniyalik Aleksandr va Qadimgi Fors davlatining oxirgi shohi Doro III qo'shinlari o'rtasida nechanchi yilda hal qiluvchi jang bo'lib o'tgan?	Mil. avv. 330-yilda
82	Yunon-makedon bosqinchilariga qarshi O'rta Osiyoda ko'tarilgan qo'zg'olonga kim boshchilik qilgan?	Spitaman
83	Spitaman bilan Makedoniyalik Aleksandr o'rtasida qachon hal qiluvchi jang bo'lib o'tgan?	Mil. avv. 328-yilda
84	“Oks” qaysi daryoning qadimgi nomi?	Amudaryo
85	“Yaksart” qaysi daryoning qadimgi nomi?	Sirdayo
86	“Politimet” qaysi daryoning qadimgi nomi?	Zarafshon
87	Aleksandrning rafiqasi ...	Ravshanak
88	Aleksandrning rafiqasi Ravshanak kimning qizi?	Oksiart
89	Aleksandr tomonidan egallanmagan hududlarni belgilang.	1) Xorazm; 2) Toshkent; 3) Farg'ona.
3-QISM		
XORAZM		
90	Salavkiylar davlatining yirik shahar va madaniyat markazlari bo'lgan shaharlarni belgilang.	1) Baqtra; 2) Maroqanda; 3) Marg'iyona Antioxiysi (Marv); 4) Termiz.
91	O'rta Osiyoda qachon antik davr boshlangan?	Yunon-makedon istilolaridan so'ng

92	Mil. avv. 250-yilda Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqqan davlatlarni belgilang.	1) Yunon-Baqtriya; 2) Parfiya
93	Xorazm nechanchi asrda Ahamoniylar davlatidan ajralib chiqib, mustaqil davlatga aylangan?	Mil. avv. IV asrda
94	Xorazmda shaharsozlikning boshlanishi nechanchi asrga borib taqaladi?	Mil. avv. VII asr
95	Quyidagi qaysi qadimiy shaharlar Xorazmga tegishli?	Qo'yqirilganqal'a, Qal'aliqir, Jonbosqal'a, Tuproqqal'a, Oybo'yirqal'a
96	Xorazmda mil. avv. VII asrda barpo etilgan shaharni aniqlang.	Ko'zaliqir
97	Mil. avv. III–II asrlarga tegishli Xorazmning qadimgi shahrini belglang.	Jonbosqal'a
98	Quyidagi qaysi manzilgohdan aylana shakldagi ibodatxona qoldiqlari topilgan?	Qo'yqirilganqal'a
99	Milodiy II–III asrlarda qaysi shaharda qurilish ishlari amalga oshirilgan?	Tuproqqal'a
100	Xorazmning qaysi qadimiy shahridagi saroydan 20 dan ortiq bo'yalgan loy haykallar topilgan?	Tuproqqal'a
101	Xorazmda qaysi davrda dastlabki kumush va mis tangalar zarb qilingan?	Mil. avv. I asrda va milodiy dastlabki asrlarda
102	O'rta Osiyodagi eng qadimgi yozuv qayerdan topilgan?	Xorazm
103	Xorazmdagi qaysi manzilgohlardan yozuvlar topilgan?	Oybo'yirqal'a, Qo'yqirilganqal'a
104	Xorazmdagi qaysi manzilgohdan mil. avv. V–IV asrlarga tegishli xum sirtiga bitilgan yozuv topilgan?	Oybo'yirqal'a
105	Xorazmning qaysi manzilgohidan mil. avv. III–II asrlarga tegishli mahalliy yozuvlar topilgan?	Qo'yqirilganqal'a
106	Xorazmda milodiy I asrda ishlab chiqilgan taqvimdan qachongacha foydalanishgan?	VIII asrgacha
QANG' DAVLATI		
107	Qang' davlati qachon tashkil topgan?	Mil. avv. III asrda
108	Qang' davlatiga kimlar asos solgan?	Saklar
109	Quyidagi qaysi davlatlar mil. avv. III asrda vujudga kelgan?	1) Qang'; 2) Davan; 3) Yunon-Baqtriya; 4) Parfiya
110	Quyidagi qaysi davlatga saklar asos solishgan?	Qang'
111	Qang' davlatiga qayerda asos solingan?	Toshkent vohasida
112	Quyidagi qaysi davlatga Toshkent vohasida asos solishgan?	Qang'
113	Xitoy manbalarida Qang' davlatining poytaxti nima deb atalgan?	Bityan

114	Quyidagi qaysi davlat mil. avv. II asr oxirlarida qudratli davlat birlashmasiga aylangan?	Qangʻ
115	Qangʻ davlati qachon qudratli davlat birlashmasiga aylangan?	Mil. avv. II asr oxirlarida
116	Quyidagi qaysi davlatning asosiy shaharlari Sirdaryo sohillari boʻylab joylashgan edi?	Qangʻ
117	Quyidagi qaysi davlat hududidan Buyuk Ipak yoʻlining shimoliy tarmogʻi oʻtgan edi?	Qangʻ
118	Qangʻ davlati qachon parchalanib ketgan?	Milodiy III asrda
DAVAN		
119	Davan davlati qachon vujudga kelgan?	Mil. avv. III asrda
120	Davan davlati qayerda vujudga kelgan?	Fargʻona vodiysida
121	Davan davlatining shaharlarini belgilang.	Ershi (poytaxt), Shoʻrabashat, Uchqoʻrgʻon
122	Xitoy hukmdorlari qayerdan keltirilgan otlarga “samoviy otlar” deya nom berishgan edi?	Davan davlatidan (Fargʻonadan)
123	Davan davlati qachon yuksak taraqqiy etgan davlatga aylangan?	Mil. avv. II–I asrlarda
124	Quyidagi qaysi davlat mil. avv. II–I asrlarda yuksak taraqqiy etgan davlatga aylangan?	Davan
125	Quyidagi qaysi davlatlar milodiy III asrda barham topgan?	1) Qangʻ; 2) Davan; [3) Kushon]
KUSHON DAVLATI		
126	Quyidagi qaysi davlatning barham topishiga yuechjilar bosqini sabab boʻlgan?	Yunon-Baqtriya
127	Kushon davlati qachon tashkil topgan?	Milodiy I asrda
128	Quyidagi qaysi davlat milodiy I asrda tashkil topgan?	Kushon davlati
129	Kushon davlatiga kim asos solgan?	Kudzula Kadfiz
130	Kushon davlati kimning davrida Afgʻoniston va Kashmirni qoʻshib olgan?	Kudzula Kadfiz
131	Kushon davlati kimning davrida Hindistonning bir qismini bosib olgan?	Kanishka
132	Kimning davrida Kushon davlatining poytaxti Baqtriyadan Peshovarga koʻchirilgan?	Kanishka
133	Kimning hukmronligi davrida Kushon podsholigida hukmdor nomi koʻrsatilgan tangalar zarb qilish boshlangan?	Vima Kadfiz
134	Kushon davlatiga tegishli boʻlgan yodgorliklarni belgilang.	1) Xolchayon; 2) Dalvarzintepa; 3) Ayritom; 4) Zartepa; 5) Qoratepa; 6) Eski Termiz (Qoratepa, Fayoztepa)

135	Oromiy yozuvi asosida kushon-baqtriya alifbosidagi yozuv namunalari qayerdan topilgan?	Qadimgi Termizdan
136	Yunon alifbosidagi kushon bitiklari qayerdan topilgan?	Surxko'tal (Afg'onistondagi Qunduz shahri yaqinida) yodgorligidan
137	O'rta Osiyoga buddaviylik ...	Kanishka Hindistonning bir qismini bosib olgandan so'ng kirib kelgan
138	Buddaviylik dini zardushtiylik dini bilan birga O'rta Osiyoda qaysi davrgacha saqlanib qolgan?	Milodiy VIII asrgacha [ya'ni islom dini kirib kelgunga qadar]
139	Kushon hukmdorlari saroyi qayerda joylashgan?	Xolchayonda
140	Kushon davlatining quyidagi qaysi shaharlarida buddaviylik ibodatxonalari bo'lgan?	1) Eski Termiz (Qoratepa, Fayoztepa), 2) Davlarzintepa
141	Do'mbirachi hamda ud cholg'u asbobini chalayotgan musiqachilar tasviri qaysi yodgorlikdan topilgan?	Ayritom
142	Fil suyagidan yasalgan shahmat donalari qaysi yodgorlikdan topilgan?	Dalvarzintepadan
BUYUK IPAK YO'LI		
143	Buyuk Ipak yo'li qachon vujudga kelgan?	Mil. avv. II asrda
144	Buyuk Ipak yo'li dastlab qanday nomlangan?	"Buyuk meridional yo'l"
145	Buyuk Ipak yo'liga shu nom kim tomonidan berilgan?	F. Rixtgofen, 1877-yilda
146	Buyuk Ipak yo'lining uzunligi qancha?	12 ming km
147	Buyuk Ipak yo'li qayerdan boshlanadi?	Sariq dengizdan (Xitoy)
148	Qadimgi davrda Buyuk Ipak yo'li orqali O'rta Osiyodagi qaysi hududdan Xitoyga jun gazlama, gilam, zeb-ziynat buyumlari olib borilgan?	So'g'diyona
149	Qadimgi davrda Buyuk Ipak yo'li orqali O'rta Osiyodagi qaysi hududdan Xitoyga tuyalar olib borilgan?	Baqtriya
150	Qadimgi davrda Buyuk Ipak yo'li orqali O'rta Osiyodagi qaysi hududdan Xitoyga zotli otlar olib borilgan?	Farg'onadan
151	Qadimgi davrda Buyuk Ipak yo'li orqali O'rta Osiyodagi qaysi hududdan Xitoyga la'l olib borilgan?	Badaxshondan
152	Qadimgi davrda Buyuk Ipak yo'li orqali qaysi hududdan O'rta Osiyo viloyatlariga ip-gazlama va paxta chigiti orilgan karvonlar kelgan?	Hindistondan
153	Qadimgi davrda Buyuk Ipak yo'li orqali qaysi hududdan O'rta Osiyo viloyatlariga guruch va ipak matolar keltirilgan?	Xitoydan

154	Qadimgi qaysi sayyohning yurgan yo'li Buyuk Ipak yo'liga asos bo'lgan?*	Chjan-Syan
155	Farg'onadan beda urug'i va zotdor otni Xitoyga olib borgan tarixiy shaxs kim?	Chjan-Syan
4-QISM		
156	O'zbek xalqi qanday nomlar bilan ulug'langan?	“o'zbiy”, “o'zbek”
157	O'zbek so'zi qanday ma'no anglatadi?	Qabila begi, hukmdor
158	Ilk o'rta asrlarda “qishloq hokimi” qaysi toifa bo'lgan?	Dehqon
159	Ilk o'rta asrlarda mulkdor tabaqa nima deb atalgan?	Dehqon
160	Ilk o'rta asrlarda katta yer egalari – dehqonlarning harbiy posponlari nima deb atalgan?	Chokar
161	Ilk o'rta asrlarda dehqonlarning ekinzorlarida ishlovchi yersiz va erksiz toifa nima deb atalgan?	Kadivar
162	Ilk o'rta asrlarda qishloqning dehqonlarga qaram aholisi nima deb atalgan?	Kadivar
163	Ilk o'rta asrlarda qishloq jamoalari yerlarida yashab yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo'lgan erkin ziroatchilar nima deb atalgan?	Koshavarz
164	Ilk o'rta asrlarda ziroatchi oddiy qo'shchilar nima deb atalgan?	Kashovarz
165	Nechanchi asrda mamlakatimizda Arab xalifaligi o'rnatildi?	VIII asr boshlarida
166	Buyuk alloma va mutafakkirlarning ilmiy merosi va uning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o'rni va roliga bag'ishlanib Samarqandda qachon konferensiya o'tkazilgan?	2014-yil 15–16-may kunlari
2-MAVZU:		
167	Zaiflashib borayotgan Qang' davlatidan birinchi bo'lib qaysi davlat ajralib chiqqan?	Xorazm
168	III asr o'rtalarida Xorazm davlatining poytaxti qaysi shahar bo'lgan?	Tuproqqal'a
169	IV–X asrlarda Xorazmda qaysi sulola hukmronlik qilgan?	Afrig'iylar
170	Milodiy 305-yilda qaysi xorazmshoh o'z qarorgohini Xorazmning qadimgi Kat shahriga ko'chirgan?	Afrig'
171	Milodiy 305-yilda Xorazmshoh Afrig' o'z qarorgohini qaysi shaharga ko'chirgan?	Kat
172	Nechanchi yildan boshlab Xorazmning afrig'iy shohlari kumush tangalar zarb etganlar?	305-yildan

173	Ayrim manbalarga qaraganda “Xorazmshohlar” unvonini dastlab qaysi sulola qabul qilgan?	Siyovushlar
174	Xorazmning quyidagi qaysi shahridan qoʻlida burgut qoʻndirilgan tojdor hukmdor tasviri tushirilgan tanga topilgan?	Tuproqqal’a
175	Xorazmning quyidagi qaysi shahridan qoʻlida lochin tutgan tojdor hukmdor tasviri tushirilgan tanga topilgan?	Anqaqal’a
176	Quyidagi qaysi davlat Oʻrta Osiyoda IV asrning 70-yillaridan V asrning ikkinchi yarmigacha hukmronlik qilgan?	Xioniylar davlati
177	Xioniylar davlatining markazi qaysi hudud boʻlgan?	Zarafshon vohasi
178	Quyidagi qaysi davlat Oʻrta Osiyoda 120 yildan oshiqroq faoliyat yuritgan?	Xioniylar davlati
179	Oʻrta Osiyoda V asrning 20-yillarida kimlar kirib kelgan?	Kidariylar, eftallar
180	Kidariylar davlatining poytaxti qaysi shahar boʻlgan?	Balx
181	Kidariylar kimlar bilan toʻqnashishi natijasida Shimoliy Hindistonga chekinishga majbur boʻlishgan?	Eftallar
182	Quyidagi qaysi davlat V asrning 20-yillaridan VI asrning 70-yillarigacha boʻlgan davrda Oʻrta Osiyoda faoliyat koʻrsatgan?	Eftallar davlati
183	Eftallar shohi Eftalon baʼzi manbalarda nima deb atalgan?	Vaxshunvar
184	Quyidagi qaysi davlatning dastlabki poytaxti Buxoro yaqinidagi Poykant va Varaxsha shaharlari boʻlgan?	Eftallar davlati
185	Quyidagi qaysi davlat oʻzaro aloqa oʻrnatish maqsadida 456-yilda Xitoyga elchi yuborgan?	Eftallar davlati
186	Eftallar davlati hukmdori nima deb atalgan?	Sho(shoh)
187	Eftallar davlati Turk xoqonligi va Eron sasoniylarining nechanchi yillardagi hujumlari natijasida barbod boʻlgan?	563–567-yillar
188	V asrda (eftallar davrida) qurilgan sugʻorish tarmoqlarini belgilang.	Zogʻariq, Boʻzsuv, Dargʻom
189	Eftallar davrida qurilgan qaysi sugʻorish tarmoqlari hozirgi vaqtda ham Toshkent vohasi va Janubiy Qozogʻiston yerlarining bir qismini suv bilan taʼminlab turmoqda?	Zogʻariq, Boʻzsuv
190	Eftallar davrida qurilgan qaysi sugʻorish tarmogʻi hozirgi vaqtda ham Samarqand viloyati janubiy	Dargʻom

	tumanlarining asosiy suv manbai hisoblanadi?	
191	Ilk o'rta asrlarda qaysi tildan xalqaro savdo tili sifatida Yettisuv va Farg'ona, Sharqiy Turkiston, Xitoy hududlarida foydalanilgan?	Sug'd tili
192	Eftallar alifbosi necha harfdan iborat bo'lgan?	25 harfdan
193	Quyidagi qaysi alifbolar baqtriya yozuvi asosida shakllangan?	eftal va toxar alifbolari
194	O'rta Osiyo aholisining madaniy an'analari qo'shni mamlakatlar, xususan, qaysi mamlakatlarning tasviriy uslublari bilan uyg'unlashib, ilk o'rta asrlar madaniyatining shakllanishida mustahkam poydevorga aylangan	Hindiston va Eron
4-mavzu		
195	Turk xoqonligiga qachon asos solingan?	VI asr o'rtalarida (552-yilda)
196	Turk xoqonligining asoschisi kim?	Bumin
197	Turk xoqonligining markazi qaysi shahar bo'lgan?	Oltoy
198	Turk xoqonligi nechanchi yilda Sirdaryo va Orol dengizi bo'ylarigacha cho'zilgan o'lkalarni egallagan?	555-yilda
199	Turk xoqonligida ko'chmanchi chorvador aholi nima deb atalgan?	"Budun" yoki "qora budun"
200	Turk xoqonligi qachon ikkiga bo'linib ketgan?	VI asrning 80-yillari oxirlarida
201	Sharqiy Turk xoqonligining poytaxti qayerda qaror topgan?	O'tukan vodiysida
202	G'arbiy Turk xoqonligining poytaxti qayerda joylashgan?	Yettisuv
203	G'arbiy Turk xoqonligi qachonga kelib nihoyatda kuchaygan?	VII asrning birinchi choragida
204	618–630-yilda G'arbiy Turk xoqonligida kim hukmronlik qilgan?	To'ng Yabg'u
205	585–586-yillarda Buxoroda kim boshchiligida qo'zg'olon bo'lib o'tgan?	Abruy
206	585–586-yillarda Abruy boshchiligidagi qo'zg'olon qayerda bo'lib o'tgan?	Buxoroda
207	Abruy qo'zg'oloni ko'tarilgan davrda G'arbiy Turk xoqoni kim edi?	Qoracho'rin
208	Quyidagi qaysi qo'zg'olon Sheri Kishvar tomonidan bostirilgan?	Abruy qo'zg'oloni
209	Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyodagi mustaqil hokimliklar orasida eng yirigi qaysi edi?	Sug'd hokimligi
210	Sug'd hukmdorlari nima deb atalgan?	Ixshid
211	Sug'd ixshidligi qaysi vohada joylashgan edi?	Zarafshon va Qashqadaryo

212	Ilk o'rta asrlarda quyidagi qaysi mahalliy hokimlik Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida joylashgan edi?	Sug'd ixshidligi
213	Sug'd ixshidligi nechta mulkni birlashtirgan edi?	11 ta
214	718-yilda qayerda hadya tariqasida Xitoyga dubulg'a yuborilgan?	Samarqanddan
215	Ilk o'rta asrlarda qaysi mahalliy hokimlik hozirgi Janubiy O'zbekiston va Janubiy Tojikiston, Shimoliy Afg'onistonni o'z ichiga olgan?	Toxariston
216	Ilk o'rta asrlarda qaysi mahalliy hokimlik 27 ta tog' va tog'oldi viloyatlaridan iborat bo'lgan?	Toxariston
217	Ilk o'rta asrlarda qaysi mahalliy hokimlikning poytaxti Balx shahri bo'lgan?	Toxariston
218	Quyidagi qaysi mahalliy hokimlik nomi qadimda Yunon-Baqtriya davlatini qulatgan chorvador qabila – yuechjilar nomidan olingan?	Toxariston
219	Ilk o'rta asrlarda qaysi mahalliy hokimlik hukmdorlari dastlab "malikshoh", keyinchalik "yabg'u" nomi bilan atalgan?	Toxariston
220	Ilk o'rta asrlarda qaysi mahalliy hokimliklar hukmdorlari ixshid deb atalgan?	Farg'ona, Sug'd
221	Ilk o'rta asrlarda Koson, Axsikat (Xushkat) va Quva (Qubo) shaharlari qaysi mahalliy hokimlikning shaharlari bo'lgan?	Farg'ona
222	Ilk o'rta asrlarda qaysi mahalliy hokimlik aholisi Qurama va Qoramozor tog'lari yonbag'rida yilqichilik bilan shug'ullanishgan?	Farg'ona
223	Ilk o'rta asrlarda qaysi mahalliy hokimlik hukmdorlari "tudun" deb atalgan?	Choch
224	Ilk o'rta asrlarda qaysi mahalliy hokimlik hukmdorlari "dehqon" deb atalgan?	Eloq
225	Chochning markazi qaysi shahar bo'lgan?	Choch
226	Eloqning markazi qaysi shahar bo'lgan?	Tunkat
227	VII asrning dastlabki choragida G'arbiy turk xoqonligi hukmdorlik qarorgohini qaysi viloyatga ko'chirgan?	Choch
228	Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda mavjud mahalliy hokimliklardan qay birida	Choch

	malika vazirlik darajasiga ega bo'lib, davlat boshqaruvida faol ishtirok etgan?	
229	Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan qaysi mahalliy hokimlikda old betida hukmdor surati, teskari tomonida ot, gajak dumli bars yoki qoplon tasviri, ba'zan sulolaviy ayri tamg'a, hatto hukmdorga yonma-yon malika tasviri tushirilgan tangalar zarb etilgan?	Choch
230	O'rta asrlarda shaharlar necha qismdan iborat bo'lgan?	3 qismdan: ko'handiz (ark), shahriston, rabot
231	Shaharning hokim qaysi joylashgan qismi nima deb atalgan?	Ko'handiz (ark)
232	Shaharning tashqi mavzesi nima deb atalgan?	Rabot
233	Shaharning ichqi qismi nima deb atalgan?	Shahriston
234	O'rta asrlarda quyidagi qaysi shahar "Binkat" deb atalgan?	Toshkent
235	O'rta asrlarda quyidagi qaysi shaharning 22 ta darvozasi bo'lgan?	Binkat (Toshkent)
236	Quyidagi qaysi yozuvlar qadimgi oromiy yozuvi asosida vujudga kelgan?	Sug'd, xorazm yozuvlari
237	Quyidagi qaysi tarixiy yodgorliklardan sug'd yozuvlari topilgan?	1) Panjikent yaqinidagi Mug' qalasidan; 2) Sharqiy Turkistondagi Turfan shahri yaqinidan; 3) Samarqandning qadimiy xarobasi Afrosiyob shahridan;
238	Samarqandning qadimiy xarobasi Afrosiyob shahridan qaysi yozuv namunalari topilgan?	Sug'd
239	Ilk o'rta asrlarda qaysi mahalliy hokimlikda o'g'il bolalar besh yoshga to'lgach, yozuv va hisobga o'rgatilar, so'ngra ular 20 yoshga kirganlarida savdo ishlarini o'rganish uchun o'zga mamlakatlarga jo'natilar edi?	Sug'd
240	Quyidagi qaysi yozuv 38–40 harfdan iborat bo'lgan?	turkiy run (ko'kturk)
241	Qaysi javobda qadimgi ko'kturk bitiklari berilgan?	Kultegin va Bilga xoqon
242	VI–VII asrlarda O'rta Osiyoda aholining ko'pchiligi qaysi dinga e'tiqod qilgan?	Zardushtiylik
243	Ilk o'rta asrlarda toxariston aholisi qaysi dinga e'tiqod qilgan?	Budda
244	Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan qaysi mahalliy hokimlik Markaziy Osiyoda budda va moniylik dinining tarqalishi va rivojida muhim ahamiyat kasb etgan?	Toxariston

245	Ilk o'rta asrlarda qaysi hudud O'rta Osiyoda nasroniylik markazi bo'lgan?	Samarqand viloyatining Urgut tumani
246	Turk xoqonligining chorvador aholisi qaysi dinga e'tiqod qilgan?	Shomoniylar
247	Dindagi eng muhim vazifa, suyanchiq, ma'muriyat mazmunini anglatuvchi atamani toping.	Arkon
248	Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyodagi quyidagi qaysi shaharning maydoni 200 gektar bo'lgan?	Samarqand
249	Bolaliktepa yodgorligi qayerda joylashgan?	Surxon vohasida
250	Quva xarobalari qayerda joylashgan?	Farg'ona vodiysida
251	Panjikent, Varaxsha va Afrosiyob qayerda joylashgan?	Zarafshon vodiysida
252	Quyidagi qaysi yodgorliklardan buddaning bahaybat haykallari topilgan?	Farg'ona vodiysidagi Quvadan, Qorg'ontepa yaqinidagi Ajinatepadan
253	Quyidagi qaysi hududdan topilgan budda haykalining bo'yi 12 metrga boradi?	Ajinatepa
254	Ilk o'rta asrlar ganchkorlik san'atining nodir yodgorligi namunalari qayerdan topilgan?	Varaxshadan
255	Ilk o'rta asrlarda qayerning qiziqchilari shuhrat topgan edi?	Buxoro
256	Ilk o'rta asrlarda qayerning naychilari shuhrat topgan edi?	Samarqand
257	Ilk o'rta asrlarda qayerning raqqos yigit va raqqosa qizlari shuhrat topgan edi?	Toshkent
258	Ilk o'rta asrlarda Xitoy a'yonlarini maftun etib, ularni hayratga solgan mashhur musiqiy san'at durdonalarini belgilang.	"Choch raqsi", "Doira raqsi"
259	Ilk o'rta asrlarda qaysi shaharda usta hunarmandlar tomonidan o'n turdagi cholg'u asboblari yasalgan?	Buxoro

5-QISM

260	Islom so'zi qanday ma'noni anglatadi?	"bo'ysunish", "itoat etish", "o'zini Alloh irodasiga topshirish"
261	Muhammad (s.a.v.) ning vafotidan keyin kim xalifa bo'lgan?	Abu Bakr
262	651-yilda arablar qaysi shaharni jangsiz qo'lga kiritishgan?	Marv
263	Afg'onistonning shimoliy, Eronning shimoli sharqiy qismi hamda Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hududlarni arablar nima deb nomlaganlar?	Xuroson
264	Movarounnahr so'zining ma'nosi nima?	"Daryoning narigi tomoni"

265	Narshaxiyning yozishicha, 673-yilning kuzida xalifa Muoviya I (661–680) farmoni bilan Ubaydulloh ibn Ziyod Amudaryodan kechib o'tib, qayerga bostirib kirgan?	Buxoroga
266	Arablar qachon Movarounnahrni to'liq bosib olishga kirishganlar?	VIII asr boshlarida
267	Arablarining Movarounnahrda harbiy yurishiga kim boshchilik qilgan?	Qutayba ibn Muslim (Qutayba)
268	Qutaybadan ukasining qo'zg'olonidan qo'rib yordam so'ragan Xorazm shohi kim edi?	Chag'on
269	HURZOD	
270	Qutayba qo'shinlari Samarqandga tashlanganda Sug'd podshosi kim edi?	G'urak
271	BALXDAN BOSHLANDI	
272	Qutayba 715-yilda qaysi hududni egallagan?	Farg'ona vodiysi
273	899–959-yillarda yashab ijod etgan tarixchi olimni aniqlang.	Muhammad Narshaxiy
274	Arablar davrida idora ishlari uchun daromadning 1/10 hajmi hisobida olinadigan soliq nima deb atalgan?	Ushr
275	Islomni qabul qilmagan aholidan olinadigan jon solig'i nima deb atalgan?	Jizya
276	Mol-mulkning 1/40 qismi hajmida olingan soliq nima deb atalgan?	Zakot
277	Hosilning 1/3 qismi hajmida olinadigan yer solig'i nima deb atalgan?	Xiroj
278	Masjidga kelib ibodat qiluvchilar uchun 2 dirhamdan pul hadya etishni joriy qilgan Xuroson noibi kim edi?	Qutayba
279	Bo'syundirilgan xaqar bilan kelishish siyosatini amalga oshirishga majbur bo'lgan xalifa kim edi?	Umar ibn Abdulaziz
280	Qaysi xalifa yangi yerlarni bunday buyon zabt etishni to'xtatish hamda moliyaviy islohot o'tkazish to'g'risida farmon bergan?	Umar ibn Abdulaziz
281	Qaysi xalifa xiroj va jizya soliqlarini olishni bekor qilgan?	Umar ibn Abdulaziz
282	Qaysi Xuroson noibi islom dinini qabul qilganlardan xiroj va jizya soliqlarini olmaslikka qaror qilgan?	Ashros
283	720-yilda qayerda qo'zg'olon boshlangan?	Sug'dda
284	720-yilda Sug'dda ko'tarilgan qo'zg'olonga kimlar boshchilik qilgan?	Sug'd ixshidi G'urak, Panjikent hokimi Divashtich
285	738–748-yillarda Xurosonning noibi kim edi?	Nasr ibn Sayyor

286	Qaysi Xuroson noibi davrida barcha musulmonlar huquq jihatdan tenglashtirilgan?	Nasr ibn Sayyor
287	Qaysi Xuroson noibi davrida yer egasining e'tiqodidan qat'i nazar ularning xiroj to'lashi shart qilib qo'yildi?	Nasr ibn Sayyor
288	Qaysi Xuroson noibi Buxorxudotning qiziga uylangan?	Nasr ibn Sayyor
289	769–783-yillarda Abbosiylarga qarshi qaysi qo'zg'olon bo'lib o'tgan?	“Oq kiyimlilar” qo'zg'oloni
290	“Oq kiyimlilar” qo'zg'oloniga kim boshchilik qilgan?	Muqanna, asl ismi Hoshim ibn Hakim
291	Qaysi qo'zg'olon rahbari o'zini yonib turgan tandirga tashlab halok bo'lgan?	Muqanna
292	806-yilda Abbosiylarga qarshi kim boshchiligida qo'zg'olon ko'tarilgan?	Rofe ibn Lays
293	Rofe ibn Lays qo'zg'oloni qayerda boshlangan?	Samarqand
294	Rofe ibn Lays qo'zg'oloni kimlarning yordami bilan bostirilgan?	Somonxudotning nabiralari: Nuh, Ahmad, Yahyo
295	Quyidagi qaysi qo'zg'olon Somonxudotning nabiralari yordamida bostirilgan?	Rofe ibn Lays qo'zg'oloni
296	Rofe ibn Lays qo'zg'oloni ko'tarilgan davrda Xuroson noibi kim edi?	Ma'mun
297	Umaviylarga qarshi umumiy norozilik, ayniqsa, qaysi xalifa davrida nihoyatda kuchaygan?	Marvon II
298	Arab xalifaligida kimning qo'zg'oloni natijasida umaviylar hukmronligi ag'darilib, hokimiyatga abbosiylar sulolasi kelgan?	Abu Muslim
299	Abbosiylardan bo'lgan birinchi arab xalifasi kim?	Abul Abbos Saffoh
300	747–749-yillarda Xuroson va Movarounnahrda kim boshchiligida qo'zg'olon bo'lib o'tgan?	Abu Muslim
301	Abbosiylarga qarshi 750-yilda qayerda qo'zg'olon ko'tarilgan?	Buxoroda
302	Arab xalifaligida Movarounnahrda tegishli masalalar qaysi devonda ko'rib chiqilgan?	Devon al-mashriq
303		
304	Qarluqlar davlati qachon va qayerda tashkil topgan?	VIII asr o'rtalarida, Yettisuvda
305	X asrda kimlar Movarounnahrning shimoliy hududlarini egallab, Shosh atrofi va Farg'ona hamda Zarafshon vodiylariga kelib o'rtnashganlar?	qarluqlar

306	IX asr oxiri va X asr boshida Sirdaryo havzasi hamda Orol dengizi bo'yida qaysi davlat tashkil topgan?	O'g'uzlar davlati
307	Qarluqlar davlatining poytaxti qaysi shahar bo'lgan?	Suyob
308	O'g'uzlar davlatining poytaxti qaysi shahar bo'lgan?	Yangikent
309	O'zbek va tojiklarning etnogenezida muhim rol o'ynagan xalqni toping.	Qarluqlar
310	Turkman, ozarbayjon, qoraqalpoqlarning etnogenezida muhim rol o'ynagan xalqni toping.	O'g'uzlar
311	Hirof viloyatining zodagoni Tohir ibn Husayn kimni xalifalik taxtiga ko'tarilishga yordam bergan?	Ma'mun
312	Somonxudotning nabiralari kimni xalifalik taxtiga ko'tarilishga yordam bergan?	Ma'mun
313	Xalifa Ma'mun nechanchi yilda Tohir ibn Husaynni Xuroson va Movarounnahr noibi etib tayinlagan?	821-yilda
314	Xalifa Ma'mun yordami evaziga kimga Samarqandni bergan?	Nuh
315	Xalifa Ma'mun yordami evaziga kimga Farg'onani bergan?	Ahmad
316	Xalifa Ma'mun yordami evaziga kimga Shosh va Ustrushonani bergan?	Yahyo
317	Xalifa Ma'mun yordami evaziga kimga Hirotni bergan?	Ilyos
318	Kimning davrida Xuroson poytaxti Marvdan Nishopurga ko'chirilgan?	Abul Abbos Abdulloh
319	Nishopur quyidagi qaysi davlatning poytaxti bo'lgan?	Tohiriylar davlati
320	Xalifalik Xuroson va Movarounnahrda qancha muddat hukmronlik qilgan?	Bir asrdan oshiqroq
321	821–873-yillarda Xurosonda qaysi sulola hukmronlik qilgan?	Tohiriylar
322	865–999-yillarda Movarounnahr va Xurosonda hukm surgan davlatni toping.	Somoniylar davlati
323	Tohiriylar hukmronligiga kimlar barham bergan?	Safforiylar
324	Haq din uchun kurashuvchi jangchi ma'nosini anglatuvchi so'zni toping.	G'oziy
325	Samarqandni markazga aylantirgan somoniy hukmdorni toping.	Nasr
326	Movarounnahrni Xurosondan ajratib olgan somoniy hukmdor kim?	Nasr
327	888-yilda butun Movarounnahrni o'z qo'l ostiga birlashtirgan somoniy hukmdorni toping.	Ismoil

328	Somoniylar bilan safforiylarni gigijlab, ularning o'rtasida urush kelib chiqishiga sababchi bo'lgan xalifa kim edi?	Mu'tazid
329	Movarounnahr va Xurosonni o'z qo'l ostida birlashtirgan somoniy hukmdorni toping.	Ismoil
330	Ismoil Somoniy butun Movarounnahr va Xurosonni o'z qo'l ostida birlashtirgach, qaysi shahar bu ikki davlatning poytaxtiga aylangan?	Buxoro
331	Somoniylar boshqaruvi, asosan, nechta devon orqali idora etilgan?	10 ta
332	Qaysi somoniy hukmdor davrida Buxoroning Registon maydonida amir qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilgan?	Nasr II
333	O'rta Osiyodagi ilk ilmgoh – madrasa qachon bunyod etilgan?	X asrda
334	O'rta Osiyodagi ilk ilmgoh – madrasa qayerda bunyod etilgan?	Buxoroda
335	O'rta Osiyoda bunyod etilgan ilk madrasa nomi qaysi javobda berilgan?	Farjak
336	Qaysi somoniy hukmdor saroyning maxsus, muntazam sarbozlaridan iborat yaxshi qurollangan harbiy qo'shin tuzgan?	Ismoil Somoniy
337	Arabchadan "o'rganmoq" ma'nosini anglatuvchi so'zni toping.	madrasa
338	O'rta asrlarda qaysi shaharda yuqori navli qog'oz ishlab chiqarilar edi?	Samarqand
339	O'rta asrlarda qaysi shahar o'zining ko'pchilik mahsulotlari va charm mollari bilan mashhur edi?	Shosh
340	O'rta asrlarda qaysi shahar kumush va qo'rg'oshin konlari hamda kumush tanga chiqaradigan zarbxonasi bilan mashhur edi?	Eloq
341	O'rta asrlarda qayerda qayiqsozlik taraqqiy etgan?	Xorazm
342	O'rta asrlarda "Zandanicha" nomli mallarang bo'z qayerda tayyorlangan?	Buxoroda
343	O'rta asrlarda "vadoriy" nomi bilan mashhur bo'lgan mato qayerda tayyorlangan?	Samarqandda
344	Somoniylar davrida davlat tasarrufidagi yerlar nima deb atalgan?	Mulki sultoni
345	Xususiy yerlar nima deb atalgan?	Mulk
346	Somoniylar davrida oliy martabali ruhoniylar va sayyidlar qo'l ostidagi yerlar nima deb atalgan?	Mulki xos

347	Hukmron sulola hamda oliy tabaqa vakillariga davlat oldidagi xizmatlari evaziga hadya qilingan yerlar nima deb atalgan?	Mulki iqto
348	X asrda yirik mansabdorlarning davlat oldidagi xizmati uchun yer va suvdan iborat katta-katta mulklar in'om qilina boshlangan. Bunday yerlar nima deb atalgan?	iqto
349	IX–X asrlarda katta yer egalari kadivarlarni ishlatishdan ko'ra, o'z yerlarini qishloq jamoalarining kam yerli a'zolariga ijaraga berishni afzal ko'radilar. O'sha zamonda ijarachilar nima deb atalgan?	“barzikor” yoki “qo'shchilar”
350	Somoniylar davlatida nechanchi yili aholidan ikki marta soliq undirib olingan?	942-yilda
351	943–954-yillarda Somoniylar davlatida kim hukmronlik qilgan?	Nuh [ibn Nasr]
352	976–997-yillarda Somoniylar davlatida kim hukmronlik qilgan?	Nuh II [ibn Mansur]
353	Nuh ibn Nasrning amakisi Ibrohim nechanchi yilda isyon ko'targan?	947-yilda
354	947-yilda Somoniylar davlatida kim isyon ko'targan?	Ibrohim
355	961-yilda qayerda harbiy askarlarning g'alayoni ko'tarilgan?	Buxoroda
356	G'aznaviylar davlatida kim asos solgan?	Alptegin
357	977–997-yillarda G'aznaviylar davlatida kim hukmronlik qilgan?	Sobuqtegin
358	G'aznaviylarning siyosiy nufuzi kimning davrida ortib, somoniylar tomonidan e'tirof etilgan?	Sobuqtegin
359	997–1030-yillarda G'aznaviylar davlatida kim hukmronlik qilgan?	Mahmud G'aznaviy
360	G'aznaviylar davlati kimning davrida Sharqning eng qudratli davlatlaridan biriga aylangan?	Mahmud G'aznaviy
361	Xorazmni zabt etgan g'aznaviy hukmdorni toping.	Mahmud G'aznaviy
362	Mahmud G'aznaviy nechanchi yilda Xorazmni zabt etgan?	1017-yilda
363	Qaysi g'aznaviy hukmdor davrida viloyatlar birin-ketin qo'ldan chiqarilib, mamlakat tanazzulga yuz tutgan?	Ma'sud G'aznaviy
364	G'aznaviylar davlati qachon butunlay tugatilgan?	1186-yilda
365	Somoniylar davlati qachon tugatilgan?	999-yilda
366	Qoraxoniylar davlati qachon tugatilgan?	1141-yilda

367	O'rta asrlarda davlatchiligimiz tarixida hukm surgan qaysi davlatning vazirlik tizimida harbiy, elchilik va rasmiy tadbirlar, moliya kabi hamda xabar-pochta devonlar faoliyat ko'rsatgan?	G'aznaviylar
368	G'aznaviylar davlatida viloyat hukmdori nima deb atalgan?	Voliy
369	G'aznaviylar davlatida shahar hokimi nima deb atalgan?	Rais
370	G'aznaviylar davlatida viloyatlarda boshqaruv ishlari kim tomonidan amalga oshirilgan?	Amid
371	G'aznaviylar davlatida shaharlarda boshqaruv ishlari kim tomonidan amalga oshirilgan?	Kutvol
372	Qaysi g'aznaviy hukmdor turkiy ona tili bilan bir qatorda fors, arab va pahlaviy tillarini mukammal bilgan, she'r bitgan?	Mahmud G'aznaviy
373	G'aznaviylar davlatining poytaxtida qancha olim, shoir va san'atkorlar ijod qilgan?	400 dan ortiq
374	G'aznaviylar davlatining poytaxti – G'azna shahrida ijod qilgan mutafakkirlarni aniqlang.	1) Beruniy, 2) Nosir Xusrav, 3) Gardiziy, 4) Bayhaqiy
375	“Qonuni Ma'sudiy” asarini kim yozgan?	Abu Rayhon Beruniy
376	“Tarixi Ma'sudiy” asarini kim yozgan?	Bayhaqiy
377	“Shohnoma” dostonini kim yozgan?	Abul Qosim Firdavsiy
378	Firdavsiy “Shohnoma” dostonini kimga taqdim etgan?	Mahmud G'aznaviyga
379	G'aznaviylar davlatining shaharlarini aniqlang.	G'azna, Balx, Nishopur, Lohur

6-QISM

380	X asr o'rtalarida qarluqlar, yag'mo, chigil, o'g'uz qabilalari ittifoqida tashkil topgan davlatni aniqlang.	Xoqoniya o'lkasi
381	Qoraxoniylar (Xoqoniya) davlatiga asos solgan shaxsni toping.	Abdulkarim Sotuk Bug'roxon
382	Quyidagi qaysi davlat hukmdorlari “arslonxon” “bug'roxon”, “tavg'achxon” unvonlari bilan yuritilgan?	Qoraxoniylar, Xoqoniya
383	992-yilda Qoraxoniylar kim boshchiligida Movarounnahrda hujum boshlagan?	Horun Bug'roxon
384	Somoniylar sulolasiga kimlar barham bergan?	Qoraxoniylar
385	999-yilda qoraxoniylar kim boshchiligida Buxoroni egallagan?	Nasr Eloqxon
386	1006- va 1008-yillarada qoraxoniylar Xuroson ustiga ikki marta qo'shin tortganida qaysi g'aznaviy hukmdor	Mahmud G'aznaviy

	ularga zarba berib, Xurosonni o'z davlati tasarrufida saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan?	
387	Qaysi sulola davrida imomlar, sayyidlar, shayxlar va sadrlarga e'tibor kuchayib, ularning obro'yi har qachongidan ham balandga ko'tariladi?	Qoraxoniylar
388	Qoraxoniylar davlatida viloyatlarni kimlar boshqargan?	Eloqxon yoki takin
389	Qaysi davrga kelib "dehqon" degan tushuncha o'zining "qishloq hokimi"ni angatuvchi asl ma'nosini yo'qotgan?	XI–XII asrlarda
390	Qaysi sulola davrida kelib "dehqon" degan tushuncha o'zining "qishloq hokimi"ni angatuvchi asl ma'nosini yo'qotgan?	Qoraxoniylar
391	Iqto yerlarini berish qachondan boshlangan?	X asrdan, somoniylar davrida
392	Nechanchi asrdan boshlab yerdan foydalanishda iqto tartiboti juda keng yoyilgan?	XI asr
393	Qoraxoniylar davrida bunyod etilib, hozirgacha saqlangan obidalarni toping.	1) Raboti Malik, 2) Masjidi kalon, 4) Vobkent minorasi, 4) Jarqo'rg'on minorasi, 5) Mag'oki attori masjidi.
394	XII asrning 30-yillari oxiriga kelganda Qoraxoniylar davlati kimlarning hujumiga duchor bo'lgan?	Qoraxitoylar
395	XII asrning 30-yillari oxiriga kelganda Qoraxoniylar davlati hujum qilgan qoraxitoylar hukmdori kim edi?	Go'rxon
396	Qoraxoniylar davlatiga kimlar barham bergan?	Qoraxitoylar
397	Xorazmda ma'muniylar sulolasi hukmronligi qachon boshlangan?	995-yilda
398	995-yilda Kat shahrini ishg'ol qilib, Xorazmning ikkala qismini birlashtirgan va Xorazmshoh unvoniga sazovor bo'lgan hukmdor kim edi?	Ma'mun ibn Muhamamd
399	Ma'muniylar davlatining poytaxti qaysi shahar bo'lgan?	Ko'hna Urganch (Gurganch)
400	Xorazmni 1017-yilda kim bosib olgan?	Mahmud G'aznaviy
401	Xorazm 1040-yilda qaysi davlatga qaram bo'lib qoladi?	Saljuqiylar
402	Saljuqiylar hukmdori Malikshoh kimni Xorazmga noib qilib tayinlagan?	Anushteginni
403	1097–1127-yillarda Xorazmda kim noiblik qilgan?	Qutbiddin Muhammad
404	1127–1156-yillarda Xorazmda kim hukmronlik qilgan?	Otsiz
405	1156–1172-yillarda Xorazmda kim hukmronlik qilgan?	Elarslon

406	1172-yilda Xorazmda hukmronlik qilgan shaxsni toping.	Sultonshoh Mahmud
407	1172–1200-yillarda Xorazmda kim hukmronlik qilgan?	Takash
408	1200–1220-yillarda Xorazmda kim hukmronlik qilgan?	Alouddin Muhammad
409	“Xorazmshoh” unvonini kim tiklagan? ★	Qutbiddin Muhammad
410	Xorazmning mustaqilligi kimning nomi bilan bog‘liq? ★	Otsiz
411	Kaspiy dengizi sohillaridan to Sirdaryoning o‘rta oqimiga qadar bo‘lgan yerlarda Xorazmshohlar davlatining poydevorini barpo etgan hukmdorni aniqlang.	Otsiz
412	1194-yilda saljuqiylar sultoni To‘g‘rulga zarba berib, Eronni Xorazmgga bo‘ysundirgan hukmdorni toping.	Takash
413	1187–1193-yillarda Nishopur, Ray, Marv shaharlarini zabt etgan Xorazmshohni aniqlang.	Takash
414	1206-yildan boshlab Movarounnahrni qoraxitoylarning qaramligidan ozod etishga kirishgan xorazmshohni aniqlang.	Alouddin Muhammad
415	Kimning davrida Yettisuvgacha bo‘lgan yerlar Xorazmshohlar davlati tasarrufiga o‘tgan?	Alouddin Muhammad
416	Qaysi xorazmshoh o‘zini “Iskandari soniy” deb ulug‘lagan?	Muhammad Xorazmshoh
417	Muhammad Xorazmshoh saroyida nechta hukmdor va ularning vakillari doimo itoatda bo‘lgan?	27 ta
418	1210-yilda Xorazmshohga qarshi qayerda qo‘zg‘olon ko‘tarilgan?	O‘tror
419	1212-yilda Xorazmshohga qarshi qayerda qo‘zg‘olon ko‘tarilgan?	Samarqand
420	Muhammad Xorazmshoh nechanchi yilda Chingizxon huzuriga Bahouddin Roziy boshchiligida o‘z elchilarini yuborgan?	1216-yilda
421	Xorazmshoh Alouddin Muhammad zamonida kim o‘z qabiladoshlari manfaati yo‘lida saroyda ko‘tarilgan barcha fitnalarga boshchilik qilar, hatto ularda shohga qarshi adovat ruhini uyg‘unlashtirib qo‘ygan edi?	Turkon xotun
422	Urganch shahri tomon borayotgan mo‘g‘ullar karvonini kim qirib tashlagan?	G‘oyirxon (Inolchiq), O‘tror hokimi
423	Xo‘jand hokimi ...	Temur Malik

424	Chingizxon Xorazmshohga qarshi qachon yurish boshlagan?	1219-yilda
425	Mo'g'ullar O'torni qamal qilayotganida shahar darvozasidan chiqib, mo'g'ullarga taslim bo'lgan sarkarda kim edi?	Qoracha Hojib
426	Chingizxon 1220-yilning 16-fevralida qayerni egallagan?	Buxoro
427	Chingizxon 1220-yilning mart oyida qayerni egallagan?	Samarqand
428	Chingizxon qaysi shaharni egallash uchun quyidagi hiylani ishlatgan? qang'li qo'shinlariga shahar olingach omonlik va'da qildi. Ular taslim bo'lib, shahar talangach, 30 minglik qang'li qo'shini, qolgan himoyachilari ham qirib tashlanadi.	Samarqand
429	Sirdaryo ikkiga ayrilgan yerda joylashgan shahar qaysi?	Xo'jand
430	O'rta asrlarda Sirdaryo qanday nomlagan?	Sayhun
431	O'rta asrlarda Amudaryo qanday nomlangan?	Jayhun
432	Chingizxon qachon Urganchga yurish boshlagan?	1221-yilda
433	Mo'g'ullar qaysi shaharda eng ko'p qurbon berishgan?	Urganch
434	Urganchni mo'g'ullardan mudofaa qilishda jasorat ko'rsatgan allomani toping.	Najmiddin Kubro
435	Najmiddin Kubroning asl ismi ...	Ahmad ibn Umar Xivaqiy
436	Chingizxon kimga shahar tashqarisiga chiqib, jon saqlashni taklif etganida "Shu tuproqda tug'ilibmiz, shu tuproq o'lamiz" degan ekan?	Najmiddin Kubro
437	Mo'g'ullar qaysi shaharni egallash uchun quyidagi hiylani ishlatishgan? 100-150 qo'y, echki berib, shahar darvozasi yonidan haydab o'tishni buyuradilar. O'zlari pistirmada turadilar. Och qolgan aholi darvozadan chiqib suruv ketidan quvib ketadilar. Shahardan ancha uzoqlashib qolganlarida mo'g'ullar ularga hujum qiladilar.	Urganch
438	Urganch mo'g'ullar tomonidan egallangach necha nafar san'at, hunar arboblari, yosh bolalar va ayollarni ajratib olib, Mo'g'ulistonga jo'natadilar?	100 ming nafar
439	1145–1221-yilda yashab o'tgan allomani belgilang.	Najmiddin Kubro

440	Jaloliddin Manguberding mo'g'ullar ustidan qozongan dastlabki yirik g'alabasi qaysi?	Valiyon jangi
441	Mo'g'ullarning Jaloliddin bilan kurashida eng katta mag'lubiyati qaysi?	Parvon jangi
442	Jaloliddin Manguberdi bilan Chingizxon o'rtasida Sind jangi qachon bo'lib o'tgan?	1221-yilning 25-noyabrida
443	Jaloliddin Manguberdi qatnashgan janglarni belgilang.	- Valiyon jangi (mo'g'ullar bilan), - Parvon jangi (mo'g'ullar bilan), - Sind jangi (mo'g'ullar bilan), - Basra yaqinidagi jang (arab xalifasi bilan), - Garni qal'asi yaqinidagi jang (gurjilar bilan), - Isfahon yaqinidagi jang (mo'g'ullar bilan) - Arzinjon yaqinidagi jang (Ko'niya, Jazira, Damashq, Misrning birlashgan qo'shinlari bilan).
444	Amir Temur qatnashgan janglarni belgilang.	- "Loy jangi" (mo'g'ullar bilan) - Anqara jangi (usmonli Turkiya hukmdori Boyazid bilan) - Qunduzcha jangi (Oltin O'rda xoni To'xtamish bilan) - Tarak jangi (Oltin O'rda xoni To'xtamish bilan)
445	Jaloliddinning jasoratini ko'rib, "Ota o'g'il mana shunday bo'lishi lozim" deya unga tan bergan shaxsni aniqlang.	Chingizxon
446	Jaloliddin Manguberдини "butun musulmonlarning sultoni" deya e'tirof etgan shaxsni toping.	Shamsiddin Eltutmish
447	Jaloliddin Manguberdi nechanchi yillarda yashab o'tgan?	1198–1231-yillarda
448	Xorazmshoh Jaloliddin Manguberding hukmronlik yillarini aniqlang.	1220–1231-yillar
449	Jaloliddin Manguberdiga xiyonat qilib Eltutmish tomoniga o'tgan lashkarboshilarni aniqlang.	Yazidak pahlavon, Sunqurjiq
450	Jaloliddin Manguberdi bilan kurash olib borgan Bag'dod xalifasi kim edi?	Nosir
451	Jaloliddin Manguberdi Ozarbayjonda barpo etgan davlatining poytaxti qaysi shahar bo'lgan?	Tabriz
452	Jaloliddin Manguberdi 1225-yil avgustda Garni qal'asi yaqinida kimlar ustidan g'alaba qozongan?	Gurjilar
453	Jaloliddin Manguberdi 1226-yilda qayerni to'liq egallagan?	Gurjiston

454	Jaloliddin Manguberding muxolif kuchlarini birlashtirishga muvaffaq bo'lgan shaxs kim edi?	Alouddin Qayqubod
455	Alouddin Qayqubod Jaloliddinning muxoliflarini birlashtirgach, birinchi bo'lib xiyonat yo'liga o'tgan kim edi?	Ukasi G'iyosddin Pirshoh
456	Jaloliddinning xiyonatkori ukasi G'iyosddin Pirshoh kim tomonidan qatl etiladi?	Kirmon hokimi
457	Jaloliddinga qarshi fitna uyushtira boshlagan uning bosh vaziri kim edi?	Sharofulmulk
458	Jaloliddin Manguberdi kimlar tomonidan o'ldirilgan?	Kurdlar
459	Xorazmda anushteginiylar sulolasi nechanchi yillarda hukmronlik qilgan?	1097–1231-yillar
460	“Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni” (“Sulton Jaloliddin Manguberding tarjimai holi”) asarining muallifi kim?	Nasaviy (Jaloliddinning shaxsiy kotibi)
461	“al-Komil-fit-tarix” (“Tarix haqida mukammal kitob”) asarining muallifi kim?	Ibn al-Asir
462	“Tarixi jahonkusho” (“Jahon fotihi tarixi”) asarining muallifi kim?	Alouddin Atomalik Juvayniy
463	“Ravzat us-safo” asarining muallifi kim?	Mirxond
464	“Tarixi arba' ulus” (To'rt ulus tarixi) asarining muallifi kim?	Mirzo Ulug'bek
465	“Jaloliddin Manguberdi” tarixiy drammasini kim yozgan?	Maqsud Shayxzoda
466	“Jaloliddin Manguberding 800 yilligini nishonlash haqida” qaror nechanchi yilda qabul qilindi?	1998-yilda
467	Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi mustaqil O'zbekistonda nechanchi yilda keng nishonlandi?	1999-yilda
468	“Jaloliddin Manguberdi” ordeni qachon ta'sis etilgan?	2000-yil 30-avgust
469	2000-yil 30-avgustda O'zbekistonda qaysi orden ta'sis etilgan?	“Jaloliddin Manguberdi” ordeni
470	Chig'atoy ulusi tashkil etilgach, uning Movarounnahr qismini boshqarish kinga berilgan?	Xorazmlik savdogar Mahmud Yalavochga
471	Mo'g'ullar davrida joriy qilingan soliqlarni ayting.	1) kalon; 2) qopchur; 3) shulen; 4) targ'u
472	Chig'atoy ulusida ziroatchilardan olinadigan yer solig'i nima deb atalgan?	Kalon
473	Chig'atoy ulusida chorvadorlarga solingan soliq nima deb atalgan?	Qopchur
474	Chig'atoy ulusida har bir podadan ikki yashar qo'y, qimiz uchun har ming	Shulen

	otdan bir biya hisobida olingan oziq-ovqat solig'i nima deb atalgan?	
475	Chig'atoy ulusida hunarmand va savdogarlardan undirilgan soliq nima deb atalgan?	Targ'u
476	1238-yilda mo'g'ullarga qarshi qayerda qo'zg'olon ko'tarilgan?	Buxoroda
477	1238-yilda Buxoroda kim boshchiligida mo'g'ullarga qarshi qo'zg'olon boshlangan?	Mahmud Torobiy
478	Mahmud Torobiy kimni sadr deb e'lon qiladi?	Shamsiddin Mahbubiy
479	Mahmud Torobiy va Shamsiddin Mahbubiyalar halok bo'lgach, qo'zg'olonchilarga kimlar boshliq qilib saylangan?	Muhammad va Ali
480	Xitoyning Pekin shahriga hokim etib tayinlagan xorazmlik tarixiy shaxs kim edi?	Mahmud Yalavoch
481	Movarounnahr (Chig'atoy ulusi) aholisi kimning islohotidan so'ng o'zboshimchalik bilan yig'ib olinadigan hisobsiz to'lovlardan ozod bo'lgan?	Mo'g'ulistonning ulug' xoqoni Munke
482	1271-yil Movarounnahrda kim tomonidan pul islohoti o'tkazilgan?	Ma'sudbek
483	Mo'g'ul hukmdorlari orasida birinchi bo'lib o'z qarorgohini Movarounnahrda ko'chirgan xon kim edi?	Kebek
484	Kebek Movarounnahrning qaysi shahri yoniga o'ziga saroy qurdirgan?	Nasaf, Saroy mo'g'ul tilida Qarshi deb yuritiladi.
485	Kepaki deb nom olgan tangalar qayerda zarb etilgan?	Samarqand va Buxoroda
486	Mo'g'ullar hukmronligi davrida qaysi shaharlar qayta tiklangan?	Urganch va Buxoro
487	Mo'g'ullar hukmronligi davrida qaysi shahar vayronlari yonginasida yangitdan shahar qad ko'targan?	Samarqand
488	Mo'g'ullar hukmronligi davrida O'rta Osiyoda yerga bo'lgan egalikning necha shakli mavjud edi?	4 xil shakli
489	Mo'g'ullar hukmronligi davrida davlat yerlari nima deb atalgan?	Mulki devon
490	Mo'g'ullar hukmronligi davrida hukmdor va noiblarga qarashli yerlar nima deb atalgan?	Mulki inju
491	Mulk yerlari, bu – ...	Xususiy yerlar
492	Mulki vaqf, bu – ...	Masjid va madrasa yerlari
493	Chig'atoy ulusi qachon ikkiga bo'linib ketgan?	XIV asrning 40-yillarida
494	Kelib chiqishi bir-biriga yaqin	Etnik jarayon

	bo'lgan turli qabila va elatlarning asrlar davomida qo'shilib borishi nima deb ataladi?	
495	“Qovunchi madaniyati” qaysi davlat davrida shakllangan?	Qang' davlati
496	Qaysi davlat davrida o'zbek va voha tojiklariga xos antropologik qiyofa to'liq shakllangan?	Qang' davlati
497	O'lkamiz nechanchi asrdan “Turkiston” nomi bilan atala boshlangan?	VII asrdan
498	Arab va ajam xalqlari nechanchi asrdan O'rta Osiyoga kirib kelgan?	VIII asrdan
499	O'zbek xalqi nechanchi asrlarda shakllangan?	IX–XII asrlarda
500	Movarounnahr mintaqasida nechanchi asrda yaxlit turkiy etnik qatlam , turkiy til muhiti vujudga kela boshladi va o'z navbatida sug'diylar va boshqa mahalliy etnoslarda ham turkiylashish jarayoni jadallashgan?	IX asrda
501	Qaysi sulola davrida sodir bo'lgan etnik jarayon o'zbek xalqining shakllanishida yakuniy bosqich bo'lgan?	Qoraxoniylar
7-QISM		
502	“Bayt ul-hikma” qaysi shaharda faoliyat yuritgan?	Bag'dodda
503	“Bayt ul-hikma”ga nechanchi asrda asos solingan?	IX asrda
504	783–850-yillarda yashab ijod etgan allomani belgilang.	Al-Xorazmiy
505	Xalifa Ma'mun zamonida “Bayt ul-hikma”da mudir sifatida faoliyat yuritgan allomani belgilang.	Al-Xorazmiy
506	Al-Xorazmiy nechta asar yozgan?	20 dan ortiq
507	Al-Xorazmiy asarlarining nechitasi bizgacha yetib kelgan?	10 tasi
508	“Al-jabr val-muqobala” asarining muallifi kim?	Al-Xorazmiy
509	Algebra faniga qaysi ajdodimiz asos solgan?	Al-Xorazmiy
510	797–865-yillarda yashab ijod etgan allomani belgilang.	Al-Farg'oniy
511	Al-Farg'oniy Farg'onaning qaysi shahrida tavallud topgan?	Quva
512	Quyidagi qaysi alloma Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o'rnini aniqlash, yangicha zij (astronomik jadval) yaratish ishlariga rahbarlik qilgan?	Al-Farg'oniy
513	832–833-yillarda Suriyaning shimolida Sinjor dashtida va ar-Raqqa oralig'ida	Al-Farg'oniy

	Yer meridianining bir darajasi uzunligini o'lchashda qatnashgan alloma kim?	
514	861-yilda Nil daryosi sohilida qurilgan qadimgi gidrometr – daryo oqimi sathini belgilaydigan “Miqyos an-Nil” inshooti va uning darajoti qayta tiklagan allomani aniqlang.	Al-Fargʻoniy
515	“Samovaiy harakatlar va umumiy ilmi nujum” asarining muallifi kim?	Al-Fargʻoniy
516	Qaysi ajdodimizning nomi XVI asrda Oydagi kraterlardan biriga berilgan?	Al-Fargʻoniy
517	Movarounnahrda xalifalik hukmronligi qachon tugagan?	IX asrning ikkinchi yarmida
518	“Dor ul-hikma va maorif” – “Ma'mun akademiyasi” nechanchi yilda shakllangan?	1004-yilda
519	X asr – 1034-yillarda yashab ijod etgan allomani belgilang.	Abu Nasr ibn Iroq
520	991–1048-yillarda yashab ijod etgan allomani aniqlang.	Abulxayr ibn Hammor
521	970–1011-yillarda yashab ijod etgan allomani aniqlang.	Abu Sahl Masihiy
522	973–1048-yillarda yashab ijod etgan allomani aniqlang.	Abu Rayhon Beruniy
523	980–1037-yillarda yashab ijod etgan allomani aniqlang.	Abu Ali ibn Sino
524	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorazm Ma'mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to'g'risida”gi farmoni chiqqan?	1997-yil 11-noyabr
525	Respublikamizda “Xorazm Ma'mun akademiyasi”ning 1000 yilligi nechanchi yilda nishonlangan?	2006-yilda
526	873–950-yillarda yashab ijod etgan allomani aniqlang.	Abu Nasr Farobiy
527	Quyidagi qaysi allomalar 160 dan ortiq asar yozib, o'rta asr ilm-fan va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan?	Farobiy, Beruniy
528	Farobiyning asarlarini belgilang.	1) “Arastuning “Metafizika” asariga sharh”; 2) “Musiqqa kitobi”; 3) “Baxt-saodatga erishuv haqida”; 4) “Tirik mavjudot a'zolari haqida”; 5) “Fozil odamlar shahri”.
529	Quyidagi qaysi alloma yunon mutafakkirlari asarlarini sharhlagan va ularni yangi g'oyalar bilan boyitgan?	Farobiy

530	Quyidagi qaysi alloma oʻrta asrlarda mukammal hisoblangan ilmlar tasnifini yaratgan?	Farobiy
531	Sharqda Arastudan (Aristotel) keyingi yirik mutafakkir – “Muallim us-soniy” va “Sharq Arastusi” nomlari bilan shuhrat Topgan allomani belgilang.	Farobiy
532	Quyidagi qaysi allomaning 70 dan ortiq tilni bilganligi baʼzi manbalarda qayd etilgan?	Farobiy
533	Buxoroning Afshona qishlogʻida tugʻilgan allomani toping.	Abu Ali ibn Sino
534	Abu Ali ibn Sino maktabni bitirgach, mantiq, falsafa, riyoziyot va fiqh ilmlarini kimdan oʻrgangan?	Abu Abdullohdan
535	865–925-yillarda yashab oʻtgan allomani toping.	Abu Bakr ar-Roziy
536	Quyidagi qaysi alloma Sharqda “Shayx ur-raʼis” nomi bilan shuhrat topgan?	Abu Ali ibn Sino
537	Quyidagi qaysi alloma 450 dan ortiq asar yozgan?	Abu Ali ibn Sino
538	“Al-qonun fit-tib” asarining muallifi kim?	Ibn Sino
539	Ibn Sinoning “Al-qonun fit-tib” asaridan nechanchi asrgacha Yevropa tabobatida asosiy qoʻllanma sifatida foydalanilgan?	XVII asrgacha
540	Xorazmning Kat shahrida tugʻilgan allomani toping.	Abu Rayhon Beruniy
541	Beruniyning asarlarini belgilang.	1) “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”; 2) “Hindiston”; 3) “Minerologiya”; 4) “Geodeziya”.
542	Qaysi ajdodimiz oʻzining astronomiyaga oid asarlarida Kopernikdan qariyb besh asr muqaddam Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni oʻrta asrlarda birinchi boʻlib ilgari surgan?	Abu Rayhon Beruniy
543	Qaysi ajdodimiz Yerning dumaloq shaklda ekanligini asoslab bergan?	Beruniy
544	Qaysi ajdodimiz 1029 ta yulduzning koordinatlari kattaliklari qayd etilgan yulduzlar jadvalini hamda dunyoning geografik kartasini tuzgan?	Beruniy
545	Qaysi ajdodimiz yevropalik olimlardan 450 yilcha oldin Amerika qitʼasi mavjudligini taxmin qilib, oʻz asarlarida bir necha bor yozgan?	Beruniy

546	Qaysi ajdodimiz Yer aylanisi uzunligini o'lchashda yangi usul – matematik usulni ishlab chiqqan?	Beruniy
547	“Qutadg’u bilig” asarining muallifi kim?	Yusuf Xos Hojib
548	“Devonu lug’otit turk” asarining muallifi kim?	Mahmud Koshg’ariy
549	“Hibat ul-haqoyiq” asarining muallifi kim?	Ahmad Yugnakiy
550	“Hikmat” asarining muallifi kim?	Ahmad Yassaviy
551	1075-yilda Xorazmda tavallud topgan allomani belgilang.	Az-Zamaxshariy
552	“Al-Mufasssal” asarining muallifi kim?	Az-Zamaxshariy
553	“Al-Kashshof” asarining muallifi kim?	Az-Zamaxshariy
554	Qaysi ajdodimiz “Arab va g’ayri arablar ustozlari” degan sharaflil nomga sazovor bo’lgan?	Az-Zamaxshariy
555	Qaysi ajdodimiz “Xorazm faxri” degan sharaflil nomga sazovor bo’lgan?	Az-Zamaxshariy
556	Qaysi ajdodimiz “Jorulloh” (“Allohning qo’shnisi”) degan sharaflil nomga sazovor bo’lgan?	Az-Zamaxshariy
557	Turkiy xalqlarning tili, madaniyati, etnografiyasi va folklorining birinchi tadqiqotchisi kim?	Mahmud Koshg’ariy
558	Quyidagi qaysi tarixiy shaxs 7–8 tilni puxta bilgan?	Mahmud Koshg’ariy
559	810–870-yillarda yashab o’tgan allomani aniqlang.	At-Termiziy
560	“Al-Jome’ as-sahih” asari muallifi kim?	Imom al-Buxoriy
561	“Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuyi” qayerda bunyod etilgan?	Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog’ida
562	870–944-yillarda yashab o’tgan allomani belgilang.	Abu Mansur al-Moturidiy
563	“Kitob al-Tavhid” (“Allohning birligi”) asarining muallifi kim?	Moturidiy
564	“Ta’vilot ahl ahl as-sunna” (“Sunniliylik an’analari sharhi”) asarining muallifi kim?	Moturidiy
565	Moturidiy qayerda tug’ildan?	Samarqandda
566	Islom olamida “Musulmonlarning e’tiqodini tuzatuvchi” degan yuksak sharaflil nomga sazovor bo’lgan allomani aniqlang.	Moturidiy
567	1117-yilda tavallud topgan allomani belgilang.	Burhoniddin al-Marg’inoniy
568	“Hidoya” asarining muallifi kim?	Burhoniddin al-Marg’inoniy
569	“Hidoyat yo’lining sarboni” degan sharaflil nomga sazovor bo’lgan allomani belgilang.	Burhoniddin al-Marg’inoniy

570	“Val-milla” (Islom dinining dalili, isboti) degan sharaflı nomga sazovor boʻlgan allomani belgilang.	Burhoniddin al-Margʻinoniy
571	XII asrda qonunshunoslar uchun “Faqihlar madrasasi” qayerda qurilgan?	Buxoroda
572	Qurʻoni karimning sharhlari nima deb ataladi?	Tafsir
573	“Qubbat ul-islom” nomi bilan shuhrat topgan shaharni belgilang.	Buxoro
574	Buxoro nechanchi asrdan “Qubbat ul-islom” – “Islom dinining gumbazi” nomi bilan shuhrat topgan?	IX asrdan
575	XII asrda Turkistonda vujudga kelgan tariqat qaysi javobda berilgan?	Yassaviya
576	XII asr oxirida Xorazmda vujudga kelgan tariqat qaysi javobda berilgan?	Kubroviya
577	XIV asrda Buxoroda vujudga kelgan tariqat qaysi javobda berilgan?	Naqshbandiya
578	Qaysi tassavvuf namoyandasi fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz maʼrifat, maʼrifatsiz haqiqat boʻla olmaydi?	Ahmad Yassaviy
579	1318-yilda Buxoro yaqinida Qasri Hinduvon qishlogʻida dunyoga kelgan allomani aniqlang.	Bahouddin Naqshband
580	“Hayotnoma” asarining muallifi kim?	Bahouddin Naqshband
581	“Dalil al-oshiqin” asarining muallifi kim?	Bahouddin Naqshband
582	Qaysi tariqatning hayotiy mohiyati quyidagicha boʻlgan: “Dil ba yor-u dast ba kor” (“Koʻngil Allohda boʻlsin-u, qoʻl mehnat bilan band boʻlsin”).	Naqshbandiya
583	Naqshbandiya taʼlimoti taraqqiyotiga keyingi asrlarda hissa qoʻshgan allomalarni belgilang.	Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Xoʻja Ahror
584	Oʻzbekistonda 1998-yilda qaysi allomalarning tavalludi nishonlangan?	al-Buxoriy, al-Fargʻoniy
585	Oʻzbekistonda 1998-yilda qaysi allomaning 1200 yilligi nishonlangan?	Ahmad al-Fargʻoniy
586	Oʻzbekistonda 1995-yilda qaysi allomaning 920 yilligi nishonlangan?	Mahmud Zamaxshariy
587	Oʻzbekistonda 2000-yilda qaysi allomaning 1130 yilligi nishonlangan?	Al-Moturidiy
588	Oʻzbekistonda 2000-yilda qaysi allomalarning tavalluddi nishonlangan?	Moturidiy, Margʻinoniy
8-QISM		
589	Movarounnahr qachonga kelib 10 ga yaqin mustaqil bekliklarga boʻlinib ketgan?	XIV asrning 50–60-yillarida

590	Amir Temur qayerda tugʻilgan?	Kesh viloyatidagi Xoʻja Ilgʻor qishlogʻi (hozirgi Yakkabogʻ)da
591	Amir Temurning yashab oʻtgan yillarini belgilang.	1336–1405-yillar
592	Amir Temurning onasining ismi qaysi javobda berilgan?	Takina xotun
593	Amir Temurning otasining ismi qaysi javobda berilgan?	Amir Taragʻay
594	Amir Temur qaysi urugʻdan boʻlgan?	Barlos
595	Amir Temurni necha yoshida madrasaga oʻqishga berishgan?	7 yoshida
596	Amir Temur necha yoshidan boshlab bolalarga xos boʻlgan ermak oʻyinlardan voz kechib, keyinchalik oʻz tengqurlari bilan sipohiylikka oid oʻyinlar bilan shugʻullanadi?	12 yoshidan
597	Amir Temur turk, arab, fors xalqlari tarixini chuqur oʻrgangan, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning eng murakkab jihatlarigacha yaxshi oʻzlashtira olgan zot, deya taʼkidlagan arab faylasufi kim edi?	Ibn Xaldun
598	1360–1361-yillarda Movarounnahrda birin-ketin ikki marta bostirib kirgan Moʻgʻuliston xonini aniqlang.	Tugʻluq Temur
599	Amir Temur ishtirok etgan janglarni belgilang.	1) “Loy jangi”; 2) Tarak daryosi boʻyidagi jang; 3) “Anqara jangi”
600	“Loy jangi” qachon boʻlib oʻtgan?	- 1365-yil 22-may - Amir Temur va Amir Husayn moʻgʻullarga (Ilyosxoʻjaga) qarshi. - jang magʻlubiyat bilan tugagan.
601	Tarak jangi qachon boʻlib oʻtgan?	- 1395-yil 15-aprelda; - Shimoliy Kavkazda Tarak daryosi boʻyida; - Amir Temur Oltin Oʻrdaga (Toʻxtamishga) qarshi.
602	“Anqara jangi” qachon boʻlib oʻtgan?	- 1402-yil 20-iyulda; - Anqara yaqinida, Chubuq mavzeyida; - Amir Temur Turkiyaga (Sulton Boyazidga) qarshi.
603	XIV asrda Eron va Oʻrta Osiyoda moʻgʻullar zulmiga qarshi xalq qoʻzgʻoloni qatnashchilari nima deb atalgan?	Sarbadorlar
604	Ilyosxoʻja hech qanday qarshilikka uchramay, Xoʻjand va Jizzax shaharlarini egallab, Samarqand ustiga yurish qilganda shahar mudofaasini kimlar oʻz qoʻliga olgan?	Sarbadorlar

605	XIV asrning 60-yillarda Movarounnahrda mo'g'ul xonlarining hujumi munosabati bilan vujudga kelgan harakat qatnashchilari nima deb atalgan?	Sarbadorlar
606	Amir Temur sarbadorlarning qaysi yetakchisini o'limdan qutqarib qolgan?	Mavlonzoda Samarqandiy
607	Sarbadorlar harakati bostirilgach Movarounnahrda kimning hukmronligi o'rnatilgan?	Amir Husayn
608	1366-yilda Movarounnahrda kimning hukmronligi o'rnatilgan?	Amir Husayn
609	1370-yilda Movarounnahrda kimning hukmronligi o'rnatilgan?	Amir Temur
610	Movarounnahrda Amir Temurning hukmronligi nechanchi yilda o'rnatilgan?	1370-yilda
611	Amir Temurning faoliyatini qo'llab-quvvatlab, unga Oliy hokimiyat ramzi nog'ora bilan bayroq tortiq qilib, uning buyuk kelajagidan bashorat qilgan taniqli ulamo kim edi?	Sayyid Baraka
612	Amir Temur 1372–1388-yillarda besh marta harbiy yurish qilgan hududni belgilang.	Xorazm
613	Amir Temur Xorazmni qachon uzil-kesil bo'ysundirgan?	1388-yilda
614	1381-yilda Amir Temur tomonidan egallangan shaharlarni belgilang.	1) Hirot, 2) Seiston, 3) Mozandaron.
615	Amir Temurga jangsiz bo'ysungan shaharlarni belgilang.	1) Saraxs, 2) Jom, 3) Qavsiya, 4) Sabzavor
616	Amir Temur saltanatida davlat boshqaruvi nechta idoradan iborat bo'lgan?	2 ta: dargoh va vazirlik (devon)
617	Amir Temur ulkan saltanat tasarrufidgi o'lkalarni asosan necha qism (ulus)ga bo'lgan?	4 qism
618	Amir Temur Xuroson, Jurjon, Mazondaron va Seistonni (markazi Hirot) kimga ulus qilib bergan?	Shohruxga
619	Amir Temur G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armanistonni (markazi Tabriz) kimga ulus qilib bergan?	Mironshohga
620	Amir Temur Fors, ya'ni Eronning janubiy qismini (markazi Sheroh) kimga ulus qilib bergan?	Umarshayxga
621	Amir Temur Afg'oniston va Shimoliy Hindistonni (markazi G'azna, keyinchalik Balx) kimga ulus qilib bergan?	Pirmuhammadga

622	Amir Temur kimni valiahd etib tayinlagan edi?	Nabirasi Pirmuhammadni
623	Amir Temur davlatida askariy qismlarini viloyatlardan to'plash bilan qaysi mansabdagi amaldorlar shug'ullanishgan?	tavochi
624	Quyidagi qaysi tarixiy shaxs Sharqda birinchilardan bo'lib qo'shinga o'tsochar qurol – to'pni olib kirgan?	Amir Temur
625	Qo'shinni yetti qo'lga – qismga bo'lib joylashtirish tartibini birinchi bo'lib kim joriy qilgan?	Amir Temur
626	Manbalarda qayd etilishicha, quyidagi qaysi hukmdorning qo'shinida ayollardan iborat bo'linmalar bo'lib, ular erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalarini ko'rsatgan?	Amir Temur
627	Amir Temur yordamida Oltin O'rda taxtini egallagan shaxs kim edi?	To'xtamish
628	Amir Temur 1398–1399-yillarda qayerga yurish qilgan?	Hindistonga va Dehlini egallagan
629	Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san'ati va davlat boshqarish uslubiga bag'ishlangan maxsus asar nomi qaysi javobda berilgan?	“Temur tuzuklari”
630	Amir Temur 1371–1390-yillarda qayerga yetti marta harbiy yurish uyushtirgan?	Mo'g'uliston
631	Amir Temur bilan 1385-yilda rasmiy aloqalari boshlangan Misr sultoni kim edi?	Barquq
632	Amir Temur “Anqara jangi”da turklarning necha ming kishilik qo'shinini mag'lub etgan?	160 ming
633	Amir Temur bilan elchilik aloqalari olib borgan Fransiya qiroli kim edi?	Karl VI
634	Amir Temur bilan elchilik aloqalarini olib borgan Ispaniya qiroli kim edi?	Genrix III
635	Amir Temurning Angliya qiroli Genrix IV bilan olib borilgan diplomatik munosabatlarida uning qaysi o'g'li faol qatnashgan?	Mironshoh
636	G'arbda “katolik oqimining homiysi” sifatida shuhrat topgan tarixiy shaxs kim edi?	Mironshoh
637	Ispan elchisi Klavixoning asarlarini belgilang.	1) “Buyuk Temur tarixi”; 2) “Temur qarorgohi”; 3) “Samarqandga sayohat kundaligi”.
638	Amir Temur o'z davlati poytaxti Samarqand atrofida qad ko'targan yangi	1) Dimishq; 2) Misr; 3) Bag'dod; 4) Sultoniya; 5) Sheroz

	qishloqlarni Sharqning qaysi mashhur shaharlari nomi bilan atagan?	
639	Amir Temur necha yil davomida mamlakatni boshqargan?	35 yil
640	Amir Temur qayta qurdirgan shaharlarni belgilang.	1) Bag'dod; 2) Darband; 3) Baylakon
641	Amir Temur tarixiy manbalarda qanday nomlar bilan ulug'langan?	1) "Sohibi jahon"; 2) "Sohibi adl" – "Adolat sohibi"; 3) Sohibqiron
642	Amir Temur tavalludining 660-yilligi qachon nishonlangan?	1996-yilda
643	Amir Temur tomonidan Boyazid I Yildirim tor-mor keltirilganidan so'ng, qaysi xalq vakillari Amir Temurning oltindan haykalchasini quydirib, ostiga "Yevropa xaloskoriga" deb yozdirib qo'yilgan ekan?	Fransuzlar
644	Yevropada Amir Temur shaxsi va uning faoliyatiga qiziqish qachondan boshlangan?	XVI asrdan
645	Yevropa olimlari ichida birinchi marta Amir Temur faoliyatini o'rgangan olim kim edi?	Perondino
646	"Skifiyalik Tamerlanning ulug'vorligi" asarining muallifi kim?	Perondino
647	"Buyuk Temur tarixi" asarining muallifi kim?	Pero Meksika
648	XVI asrda "Buyuk Temur" nomli sahna asari kim tomonidan yaratilgan?	Xristofor Morlo
649	Amir Temur va Temuriylar haqida nechta mamlakatda tadqiqotchilarning asarlari chop etilgan?	33 mamlakatda 500 dan ziyod tadqiqotchilarning
650	Sho'rolar tuzumi davrida 1968-yili kimning "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rne va roli" risolasini nashr etilgan?	I. Mo'minov
651	Amir Temurning haykallari O'zbekistonning qaysi shaharlarida qad ko'targan?	Toshkent, Samarqand, Shahrisabz
652	Toshkentda Amir Temur haykali nechanchi yilda qad rostlagan?	1993-yilda
653	Samarqand va Shahrisabzda Amir Temurning haykali nechanchi yilda qad rostlagan?	1996-yilda
654	Xalqaro Amir Temur jamg'armasi nechanchi yilda tashkil etilgan?	1995-yilda
655	Temuriylar davri muzeyi nechanchi yilda barpo etilgan?	1996-yilda
656	"Amir Temur" ordeni nechanchi yilda ta'sis etilgan?	1996-yilda


657	Yoshlarga harbiy ta'lim-tarbiya beradigan kursantlar maktablariga "Temurbeklar maktabi" deb nom berish taklifini kim ilgari surgan?	Sh.M.Mirziyoyev
658	Amir Temur vafotidan so'ng taxtni o'zboshimchalik bilan egallab olgan temuriy shahzoda kim edi?	Xalil Sulton Mirzo
659	Xalil Sultonga qarshi isyon ko'targan amirlarni aniqlang.	1) Amir Xudoydot, 2) Shayx Nuriddin
660	1407-yilda o'z vaziri tomonidan uyushtirilgan fitnada halok bo'lgan temuriy kim edi?	Amir Temurning valiahdi Pirmuhammad
661	1408-yilda Qoraqo'yunli turkmanlarning qabila boshlig'i Qora Yusuf bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan temuriy kim edi?	Mironshoh
662	Amir Temur vafotidan so'ng boshlangan o'zaro kurashlarga kim chek qo'ygan?	Shohrux
663	1394–1449-yillarda yashab o'tgan temuriyni belgilang.	Mirzo Ulug'bek
664	1447-yilda nevarasi Sulton Muhammad isyonini bostirish vaqtida Ray viloyatida o'rniga vors belgilashga ulgurmay olamdan o'tgan temuriy hukmdorni belgilang.	Shohrux
665	1425-yilda Issiqko'l yaqinidagi jangda mo'g'ullar ustidan g'alaba qozongan temuriyni aniqlang.	Mirzo Ulug'bek
666	Ulug'bek Movarounnahr va Turkistonning hokimi deb e'lon qilingan davrda Turkistonn kimning tasarrufida edi?	Shayx Nuriddin, U Shohruxni ham, ULug'bekni ham tan olmas edi, keyinchalik Ulug'bekka qarshi qo'zg'olon ko'targan.
667	Shohrux vafotidan so'ng Movarounnahr taxtni kim egallagan?	Alouddavla
668	"Padarkush" ("ota qotili") deb la'natlangan temuriy kim edi?	Abdullatif, Mirzo Ulug'bekning o'g'li
669	Abdullatif vafot etgach Samarqandda kimni hukmdor qilib ko'tarishdi?	Mirzo Abdulloni
670	Abdullatif vafot etgach Buxoroda kimni hukmdor qilib ko'tarishdi?	Abu Saidni
671	Abulxayrxon yordamida Movarounnahrda hokim bo'lib olgan temuriyni aniqlang.	Abu Said
672	Temuriylar davri muarrixlarining yozishicha, XV asr o'rtalarida Xuroson nechta bo'lakka ajralib ketgan edi?	11 ta
673	1469-yilda Xurosonni egallab olgan temuriy hukmdorni aniqlang.	Sulton Husayn (Boyqaro)
674	1454-yilda Hirot hokimi Abulqosim Bobur Movarounnahrda bostirib kirib, Samarqandni qamalga olganida kim	Xo'ja Ubaydulloh Ahror

	mojaroga qat'iyon aralashib, raqiblarni yarashtirgan edi?	
675	Qariyb 40 yil hukm surgan temuriylarning so'nggi yirik hukmdorini aniqlang.	Sulton Husayn (Boyqaro)
676	Alisher Navoiy Samarqandda kimdan saboq olgan?	Fallulloh Abullays Samarqandiy
677	Temuriylar davrida g'isht terib imorat qaddini bino qiluvchilar nima deb atalgan?	“banno”
678	Temuriylar davrida peshtoq-u ravoq hamda toqlarga parchin va girihlar qoplab imoratga pardo beruvchilar nima deb yuritilgan?	“ustoz”
679	1428-yilda fulusiy pullar islohotini amalga oshirgan temuriy hukmdorni aniqlang.	Mirzo Ulug'bek
680	Qaysi temuriy hukmdor davlat xazinasiga tushadigan daromadni ko'paytirish maqsadida tamg'a solig'ini birmuncha oshirgan?	Mirzo Ulug'bek
681	XV asrda (temuriylar davrida) Movarounnahr va Xurosonda yer va mulkchilikning asosan necha xil shakli bo'lgan?	4 xil: Mulki devoniy, mulk, mulki vaqf, jamoa yerlari
682	Begar nima?	Hashar, ommaviy ishlab berish majburiyati
683	Buxoro xonligida aholiga davlat oldida o'tashi shart bo'lgan mehnat majburiyati nima deb atalgan?	yasoq
684	Xiva xonligida yer solig'i nima deb atalgan?	Solg'ut
685	Chig'atoy ulusida ziroatchilardan olinadigan yer solig'i nima deb atalgan?	kalon
686	Xiroj qanday soliq?	Yer solig'i (e'tibor bering! “Salg'ut” Xivada, “kalon” Chig'atoy ulusida yer solig'i bo'lgan. Davlatchiligimiz tarixidagi aksariyat sulolalarda esa yer solig'i xiroj deb atalgan, jumladan temuriylar davrida ham).
687	1404-yilda Samarqandda madrasa qurdirgan temuriy malikani toping.	Saroymulkxonim
688	Temuriylar davrida qaysi shaharda 36 ta madarasa bo'lgan?	Hirod
689	Ixlosiya madrasasi va Xalosiya xonaqohi kimning davrida bunyod etilgan?	Husayn Boyqaro
690	Ulug'bek farmoni bilan 1417-yilda qayerda madrasa qad ko'targan?	Buxoroda

691	Ulugʻbek farmoni bilan 1420-yilda qayerda madrasa qad koʻtargan?	Samarqandda
692	Ulugʻbek farmoni bilan 1433-yilda qayerda madrasa qad koʻtargan?	Gʻijduvonda
693	Quyidagi qaysi mdarasining darvozasiga “Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir”, degan xitobnoma oʻyib yozib qoʻyilgan?	Buxoroda
694	Samarqand madrasasida yetakchi mudarris kim boʻlgan?	Shamsiddin Muhammad Xavofiy
695	Ulugʻbek tomonidan qurdirilgan Samarqand madrasasida faoliyat olib borgan tarixiy shaxslarni belgilang.	Shamsiddin Muhammad Xavofiy, Qozizoda Rumi, Gʻiyosiddin Jamshid Koshoniy, Ali Qushchi
696	Samarqand madrasasida ilmi hayʼat (astronomiya)dan darsni kim bergan?	Qozizoda Rumi
697	Temuriylar davrida Samarqandda joylashgan madrasalarni belgilang.	1) Xonim; 2) Qutbiddin Sadr; 3) Muhammad Sadr.
698	Quyidagi qaysi shaxslarning Samarqandda kutubxonalari boʻlgan?	1) Amir Temur, 2) Ulugʻbek
699	Quyidagi qaysi shaxslarning Hirotida kutubxonalari boʻlgan?	1) Shohrux, 2) Boʻysungʻur, 3) Husayn Boyqaro, 4) Alisher Navoiy
700	Mirzo Ulugʻbek rasadxonasi nechanchi yillarda bunyod etilgan?	1424–1429-yillar
701	Ulugʻbek rasadxonasining balandligi necha metr?	31 metr
702	Kim boshchiligida Ulugʻbek rasadxonasining asosiy oʻlchov asbob-uskunasi – ulkan sekstant oʻrnatilgan?	Gʻiyosddin Jamshid
703	“Afloṭuni zamon” degan nom olgan tarixiy shaxsni aniqlang.	Qozizoda Rumi
704	“Oʻz davrining Ptolomeyi” nomi bilan shuhrat qozongan shaxsni aniqlang.	Ali Qushchi
705	“Ziji jadidi Koʻragoniy” asari muallifi kim?	Mirzo Ulugʻbek
706	Quyidagi qaysi vatandoshimizning yil hisobi hozirgi yil hisobidan atigi bir minut-u ikki sekundga farq qilgan?	Mirzo Ulugʻbek
707	Mirzo Ulugʻbek rasadxonasida nechta yulduzning oʻrni va holati aniqlangan?	1018 ta
708	1029 ta yulduzning kordinatlarini aniqlagan allomani belgilang.	Beruniy
709	Ulugʻbek tevaragida nechta olim uyushgan?	100 dan ortiq
710	“Ulugʻbek Samarqandda boʻlib akademiyaga asos soldi. Yer sharini oʻlchashni buyurdi va astronomiyaga oid jadvallarni tuzishda ishtirok etdi”, deb yozgan fransuz olimi kim edi?	Volter

711	Ma'mun akademiyasi nechanchi yilda tashkil etilgan?	1004-yil
712	Quyidagi qaysi madrasa Xorazmda tashkil etilgan "Donishmandlar uyi"dan (Ma'mun akademiyasi) keyingi ikkinchi "Dor ul-ilm" hisoblangan?	Ulug'bek asos solgan Samarqand akademiyasi
713	1366–1465-yillarda yashab ijod etgan shoirni belgilang.	Lutfiy
714	Navoiyning asarlarini belgilang.	"Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy", "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr", "Majolis un-nafois"
715	Quyidagi qaysi shaxsning ota-bobolari asli buxorolik bo'lib, fiqh ilmida zamonasining yetakchi olimlari sifatida shuhrat topganlar?	Mirxond
716	"Ravzat us-safo" asarining muallifi kim?	Mirxond
717	15–16 yoshlarida Alisher Navoiyning diqqat nazariga tushib, uning vafotiga qadar shoirning yonida bo'lib, kutubxonasiga boshchilik qilgan shaxsni belgilang.	Xondamir
718	"Habib us-Siyar" asarining muallifini aniqlang.	Xondamir
719	Nasta'liq yozuvini kim kashf etgan?	Mirali Tabriziy
720	Quyidagi qaysi shaxs "Qiblat ul-kuttob" (Kotiblar qiblasi) va "Sulton ul-xattotin" (Xattotlar sultoni) nomlari bilan shuhrat topgan?	Sultonali Mashhadiy
721	Rassomchilikda "Hirot maktabi" deb nomlangan yangi bir ijodiy uslubning asoschisi kim?	Kamoliddin Behzod
722	"Moniyi Soniy" (Ikkinchi Moniy) nomi bilan ulug'langan shaxsni toping.	Kamoliddin Behzod
723	Kamoliddin Behzod qaysi tarixiy shaxslarning portretini chizgan?	Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon
724	Navoiyning hassaga tayanib turgan rasmini kim chizgan?	Mahmud Muzahhib
725	Kamoliddin Behzod nomidagi Davlat mukofoti nechanchi yilda ta'sis etilgan?	1997-yil
726	2000-yil noyabrda qaysi tarixiy shaxsning 545 yilligi keng nishonlangan?	Kamoliddin Behzod
727	Behzod nomidagi memorial bog' qayerda barpo etilgan?	Toshkent shahrida

Ish quroling soz bo'lsa,
mashaqqating oz bo'lur.



JALOL BOLTAYEV
97 299 00 66
@TESTLIDER




TAQRIZLANGAN, MUKAMMAL TEST TO'PLAMLARI

EXE (KOMPYUTER) TESTLAR

OPTIMAL QO'LLANMALAR

Mashqda qanchalik qiyin bo'lsa,
jangda shunchalik oson bo'ladi.






GEOGRAFIYA VA TARIX
FANLARIDAN KAFOLATLANGAN
(HUJJAT BILAN) O'QUV KURSI

HAR DARSLIK BO'YICHA:

- ✓ OPTIMAL SAVOL-JAVOBLAR
- ✓ MAVZULASHTIRILGAN TESTLAR
- ✓ EXE (KOMPYUTER) TESTLAR (HAR DARSLIKDAN: 3000+)
- ✓ BOBLASHTIRILGAN «MAXSUS» TESTLAR
- ✓ QULAY QO'LLANMALAR
- ✓ XARITALARNI O'RGANISH UCHUN MAXSUS DASTURLAR
- ✓ AMALIY MASALALAR UCHUN VIDEODARSLAR

KURS DASTURI PROGRESSIV USLUBGA ASOSLANGAN. YA'NI "NOL"DAN "YUZ"GA QARAB BORILADI.



O'quv kurslarimizga ro'yxatdan o'tish uchun
(TARIX, GEOGRAFIYA, HUQUQ):

- Repetitor: Jalol Boltayev
- Telefon: (97) 299-00-66
- Manzil: Xorazm v., Urganch sh., «ARASTU» o'quv markazi
- Mo'ljal: UrDU, "Hyudai" avtosaloni
- **ONLAYN KURSLARIMIZ HAM MAVJUD!!!**

**«Majburiy fan» sifatida TARIX fanini
o'rganayotgan abituriyentlar qisqa muddat
ichida, oson yo'l bilan qanday qilib imtihonda
yaxshi natijaga erishishi mumkin?**



– kursda dastlab mavzular repetitor tomonidan qisqacha tushuntirib beriladi. Tushuntirish jarayonida aynan **"majburiychilar" uchun kerak bo'lgan ma'lumotlarga** urg'u qaratiladi. Keyingi darsda siz o'sha mavzularga tayyorlanib kelishingiz talab etiladi.



– uyingizga borganingizdan so'ng har bir mavzuni dastlab **darslikning o'zidan kamida 1 marta** o'qing.




– o'qigan mavzuingizning **audiosini** tinglang.



– yana qaytadan har bir mavzuni kamida **2 martadan** o'qing. Ammo bu safar **"MAXSUS QO'LLANMA"** dan o'qishingiz tavsiya etiladi. Mazkur qo'llanma orqali mavzularni o'rganishingiz oson bo'ladi.



– **"Kundalik-optimal"** test to'plami. "Majburiychi"lar uchun ushbu test to'plamini ishlash **ixtiyoriydir**. Mazkur testni ishlaganingizdan so'ng mavzular xotirangizda mustahkamlanadi. O'rtacha har mavzuda **20-30 ta** test. **Ikkilangan testlaringizni kitobdan javobini ko'rib oling.**



– **"EHTIMOLIY SAVOLLAR - 2022"** qo'llanmasidan uyga vazifa qilib berilgan mavzularga oid bo'lgan savollarni yodlang! **Bu juda muhim bo'lib, MINIMUM ravishda shu qo'llanmadagi savollarning javobini bilishingiz talab etiladi. HAR KITOB DAN O'RTACHA 400 TA SAVOL (6-SINF DAN ESA 150+ TA. JAVOBLARI BILAN). YA'NI DARS LIK D A G I M A ' L U M O T L A R 75 % G A Q I S Q A R G A N .**



– tayyorlov kursida dastlab **"savol-javob" tarzida** mavzuni topshirasiz ("majburiychilar" mavzuni "savol-javob" tarzida topshiradi, asosiy fan sifatida tayyorgarlik ko'rayotganlar esa mavzuni gapirib (yoritib) berishadi).



– **"EHTIMOLIY SAVOLLAR - 2022"** qo'llanmasida berilgan savollarni **kompyuterda** test ko'rinishida ishlaysiz. **E'tibor bering! Bu test aynan "sinov" tarzidagi test emas! Ya'ni siz kompyuterda javoblari bilan berilgan qo'llanmadagi ma'lumotlar asosidagi testni ishlaysiz, xolos.** Shuningdek muayyan darslikni o'qib tugatganingizdan so'ng **shu kitobdan imtihonda tushish ehtimoli yuqori bo'lgan testlarni ham platformada** ishlaysiz.



– **"EHTIMOLIY SAVOLLAR +++".** Ushbu savollar kurs yakunida, imtihonda sanoqli kunlar qolganda beriladi. **Barcha darslik asosidagi jami 500+ savolni o'z ichiga oladi.**



– Kurs davomida majburiy fanlar (tarix) uchun **DTM standartidagi testlar** (ya'ni "15 talik" testlar) ham ishlanadi.



